

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**O‘zbek filologiyasi fakulteti**

**Hozirgi zamon o‘zbek adabiyoti kafedrası**

**ROZIQOV FOZIL**

**QUDRATOVICH**

**O‘LMAS UMARBEOV ROMANLARIDA  
MUHIT VA XARAKTER TALQINI**

**Bitiruv malakaviy ishi**

**5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)  
bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi**

**Ilmiy rahbar: dots. Nosirov A.**

**SAMARQAND - 2015**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI**  
**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI**

**HOZIRGI ZAMON O‘ZBEK ADABIYOTI**  
**KAFEDRASI**

**ROZIQOV FOZIL QUDRATOVICH**

**O'LMAS UMARBEOV ROMANLARIDA MUHIT  
VA XARAKTER TALQINI**

**Bitiruv malakaviy ishi**

**5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) bakalavriat  
ta'lim yo'nalishi**

**Ilmiy rahbar  
dots. A. Nosirov**

**SAMARQAND - 2015**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI**

**HOZIRGI ZAMON O‘ZBEK ADABIYOTI  
KAFEDRASI**

**ROZIQOV FOZIL QUDRATOVICH**

**O‘LMAS UMARBEOV ROMANLARIDA MUHIT  
VA XARAKTER TALQINI**

**Bitiruv malakaviy ishi**

**5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) bakalavriat  
ta’lim yo‘nalishi**

**Ilmiy rahbar: dots. Nosirov A.**

**Rasmiy taqrizchi: f.f.n. Sulaymonov I.**

Malakaviy bitiruv ishi o‘zbek tilshunosligi kafedrasining 2015 yil 22 maydagi majlisida muhokama qilingan va YaDAK himoyasiga tavsiya etilgan (11-son bayonnoma).

**Kafedra mudiri: dots. Nosirov A.**

Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2015 yil \_\_\_\_ iyundagi yig‘ilishida himoya qilingan va \_\_\_\_ foiz bilan baholangan. ( \_\_\_\_ -son bayonnoma )

**YaDAK raisi: prof. Turniyozov N.**

**A’zolari:**

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

**SAMARQAND - 2015**

## MUNDARIJA

Kirish .....	3-6
1-BOB. Adib ijodi va romanchilik taraqqiyotidagi o‘rni .....	7-18
2-BOB. “Odam bo‘lish qiyin” romanida ruhiy iztiroblar talqini .....	19-31
3-BOB. “Fotima va zuhra” romanida muhit va xarakter.....	32-55
Xulosa. ....	56-60
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	61-63

## **REJA:**

### **KIRISH.**

### **ASOSIY QISM:**

**I BOB.** ADIB IJODI VA ROMANCHILIK  
TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI.

**II BOB.** “ODAM BO‘LISH QIYIN” ROMANIDA RUHIY  
IZTIROBLAR TALQINI.

1-fasl. Asarda xarakterning shakllanishida muhitning roli.

2-fasl. Asarda xarakter va ruhiyat birligi talqini.

**III BOB.** “FOTIMA VA ZUHRA” ROMANIDA MUHIT VA  
XARAKTER.

1-fasl. Asardagi obrazlar tizimi.

2-fasl. Romanda shaxs fojeasining ifodasi.

3-fasl. Xarakterlararo konflikt talqini.

### **IV. XULOSA.**

### **V. ADABIYOTLAR RO‘YXATI.**

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Badiiy adabiyotining taraqqiyotiga va rivojiga turfa xil janrdagi asarlari bilan katta hissa qo‘shgan iste’dodli ijodkorlardan biri O‘lmas Umarbekovdir. Yozuvchining turli janrdagi asarlari bilan bir qatorda roman janrdagi asarlari ham o‘zbek adabiyotining taraqqiyotiga sezilarli hissa bo‘lib qo‘shilganligini alohida qayd etish lozim. Yozuvchining turfa xil mavzudagi ya’ni ijtimoiy muhitning murakkab qirralarini inson xarakteri orqali ifodalab bergan “Odam bo‘lish qiyin”, hayot ziddiyatlarini jinoyat va jazo olamidagi inson ruhiy – ma’naviy iztiroblarini dedektiv xarakterdagi “Fotima va Zuhra” romanlarida tasvirlashga, hayotni, insonning turfa xil xislatlarini mahorat bilan yoritib berganligini kuzatish mumkin.

Prezidentimiz I.A.Karimov qayd qilganidek: “Bir so‘z bilan aytganda, xalqimiz adabiyotni muqaddas va ulug‘ bir dagoh deb biladi. Ana shunday bahoning o‘zi el-yurtimiz hayotida bu soha namoyondalariga, ularning haqqoniy so‘zi, chuaur ma’noli asarlariga ishinch, hurmat-e’tibor va ehtirom azaldan yuksak darajaga ko‘tarilganini yaqqol ko‘rsatib turibdi. Hech shubhasiz, ziyolilarning ilg‘or qismi bo‘lmish badiiy adabiyot vakillarining xalqimiz qalbini, uning oily maqsadlari, bugungi hayoti, taqdiri va kelajagini yaqindan biladigan insonlar sifatida jamiyatimizdagi o‘rni va ta’siri beqiyosdir”<sup>1</sup>.

Hayot va jamiyatdagi barcha o‘zgarishlarning asosida inson tafakkuri yotadi. Tafakkurda o‘zgarish bo‘lmas ekan, ijtimoiy hayotda ham o‘zgarish bo‘lishi juda qiyin. Istiqlol davrining yuzaga kelishi ham bu jarayoning mahsuli bo‘lib, ijodkorlarning hayotga, olam va odamga teranroq nazar solish an’anasini ham yuzaga chiqardi. Bu esa o‘tmish davr adabiyotini uzviy bo‘lagi bo‘lgan istiqloq davri adabiyoti degan tushunchani ifodalab berdi. Shu jihatdan qaraydigan bo‘lsak, sobiq sho‘rolar davrida ham ijodkorlarimiz hayot va inson o‘rtasidagi dialektik birlikni, shaxsning shakllanish jarayonida ijtimoiy muhitning o‘rni, xarakterni shakllanishida o‘ziga xos o‘ringa ega ekanligini asosli talqin etuvchi bir qator yetuk asarlar yaratilganligini ham alohida qayd etish lozimdir.

---

<sup>1</sup> I.Karimov. Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor. –Toshkent, “O‘zbekiston”, 2009, 7-bet.



Adabiyotshunos Sobir Mirvaliyev yozuvi ijodi haqida soʻz yurutar ekan, quyidagi fikrlarni alohida qayd etadi: “Iste’dodli adib O‘lmas Umarbekov barhayotligidayoq o‘z tengdoshlari va zamondoshlarining hurmat – e’tiborini qozonish baxtiga muyassar bo‘lganlardan. Buning ustiga o‘z zamondosh ustozlari e’zozidan ham bahra topgan. Bunday holat faqat o‘sha iste’dodning baxtigina bo‘lib qolmay, balki u mansub bo‘lgan adabiyotning ham omadi, ravnaqidan bir dalolatdir... badiiy asarlarda – ular xoh hikoya, xoh roman, xoh sahna asarlari bo‘ladimi, hamma – hammasida inosnlardagi ma’naviy axloqiy fazilatlarni ardoqlashga, ulug‘ lashga intildi”<sup>2</sup>.

Darhaqiqat, O‘lmas Umarbekov qaysi janrda ijod etgan bo‘lsa, inosnning ma’naviy – axloqiy xususiyatlarini, xarakter shakllanish jarayonidagi ijtimoiy muhitning sezilarli ta’sirini tasvirlab bergan. Shu nuqtai nazardan, “Odam bo‘lish qiyin”, “Fotima va Zuhra” romanlaridagi badiiy tasvirlarga nazar tashlar ekanmiz yuqorida qayd qilingan fikrlarning zamirida asos borligini teranroq his eta boshlaymiz.

Ma’lumki, o‘z navbatida har bir jamiyat taraqqiyotidagi o‘zgarishlar davr muhiti uchun bir qator muammolarni yuzaga keltiradi, shunga muofiq insoniyatning hayotga bo‘lgan munosabati ham har bir davrda turfa xil o‘zgarishlarga uchraydi. Adibning yetmishinchi yillar hayotini badiiy tasvirlab bergan “Odam bo‘lish qiyin” romanida turfa xil o‘zgarishlarni yuzaga chiqarishga imkon yaratgan ijtimoiy muhitning ta’sirida shakllanib, o‘z insoniy fazilatlarini yo‘qota boshlagan, ba’zi ziyoli shaxslarning fojeali qismatini haqqoniy yoritib bergan. Bu esa soʻz san’atkoridan o‘sha davr muhitini inosn xarakterdagi o‘zgarishlarni haqqoniy va teran anglaganidan dalolat beradi. 70 yil davomida o‘z tili va dinidan, milliy qadriyatlaridan uzoqlasha boshlagan bir vaqtda, mustaqillikning qo‘lga kiritilishi hayot va jamiyatdagi o‘zgarishlarga jiddiy munosabat bildirish tuyg‘ usini uyg‘ otdi. Jamiyatda ro‘y bergan o‘zgarishlar badiiy adabiyotda o‘z inikosini topa boshladi. Shu jihatdan jamiyat va inson, inson

---

<sup>2</sup> С. Мирвалиев. Ўзбек адиблари. XX аср ўзбек адабиёти. Ўқув қўлланма. –Т.: «Ёзувчи», 2000. 137-138-бетлар.

va insonlararo, tabiat va shaxs o'rtasidagi qarama-qarshiliklar teranroq badiiy adabiyotda talqin etildi. Ana shunday bir sharoitda murakkab ijtimoiy muhit murakkab inson xarakterlarini shakllanishi uchun zamin bo'ldi. Bu holatni adibning jinoyat va jazo olamidagi inson qismati va fojealarini talqin etuvchi "Fotima va Zuhra" romanini alohida qayd etib, detektiv xarakterdagi asarlar qatoridan o'rin olganligini ham ta'kidlab o'tamiz. Roman sujetida o'ziga xos talqin usulini kuzatar ekanmiz, poetik obrazlarni, inson botiniy olamidagi ziddiyatlarni haqqoniy ko'rsatib berish an'anasi dedektiv xarakterdagi asarlarda yanada teranroq o'z aksini topmoqda. Bu esa bunday xarakterdagi asarlarni o'rganish va tahlil etish muammosini yuzaga chiqaradi. Shu jihatdan adibning "Odam bo'lish qiyin", "Fotima va Zuhra" romanlarining badiiy xususiyatlarni o'rganish, tahlil qilish, yutuq va kamchiliklarini ko'rsatish, bilan bir qatorda muhit va xarakter tasviriga alohida to'xtalib o'tish, shuningdek so'z san'atkorning badiiy mahoratini ko'rsatish bitiruv malakaviy ishimizning dolzarbligini belgilaydi.

**Tadqiqotning maqsad va vazifalari.** Tadqiqotning asosiy maqsadi yangi shakl va mazmun jihatdan boyib borayotgan badiiy adabiyotdagi turfa xil xarakterdagi asarlarning shakllanishini, ularning bugungi badiiy adabiyotdagi poetik xususiyatlarini iste'dodli adib O'lmas Umarbekov romanlari misolida tahlil qilish va bu orqali yozuvchi poetik mahoratini ko'rsatishdan iboratdir. Shu jihatdan yozuvchining "Odam bo'lish qiyin", "Fotima va Zuhra" romanlaridagi obrazlar tizimini, sujet va kompozitsiya va poetik xususiyatlarini o'rganish jarayonida quyidagi vazifalarni yuzaga chiqarishni asosiy maqsad qilib oldik.

- "Odam bo'lish qiyin" romanidagi badiiy obrazlarni tahlil qilish;
- roman sujetidagi ijtimoiy muhit va xarakter talqiniga munosabat bildirish;
- sujet va kompozitsion birlikni tahlil qilish;
- "Fotima va Zuhra" romanidagi yovuzlik va ezgulik o'rtasidagi kurash haqida so'z yuritish;
- asardagi bir oila misolidagi fojealarni ijtimoiy muhit nuqtai nazaridan tahlil qilish;

- asaradagi badiiy xarakterni shakllanish jarayoniga e'tibor qaratish;
- roman sujetidagi konflikt turlari haqida xulosalar chiqarish;
- asardagi ruhiy iztiroblar talqini va qahramon psixologiyasini yoritish jarayonida yozuvchi badiiy mahoratini ko'rsatib berishdan iboratdir.

**Mavzuning o'rganilish darajasi.** O'zbek nasrining taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shgan O'lmas Umarbekov ijodi bir qator adabiyotshunos olimlar tomonidan U. Normatov, N. Karimov, M. Qo'shjonov, S. Mirvaliev, S. Mirzaevlar tomonidan u yoki, bu darajada xolisona baho berilgan. Ammo adibning romanlari monografik tadqiqot nuqtai nazaridan tahlil qilingan emas. Shuning uchun yozuvchi romanlarining badiiy xususiyatlarini o'rganish, bugungi kun nuqtai nazaridan baho berish davrning dolzarb muammolaridan biriga aylanganligini alohida ta'kidlash lozim.

**Tadqiqotning metodologik asosi va metodi.** Mustaqillik mafkurasining shakllanishida Prezidentimiz I.A. Karimovning mulohazalarida tayangan holda, adabiyotshunos olimlarning estetik qarashlariga, fan va madaniyat arboblarining adabiyot nazaryasi hamda adabiyot muammolari bo'yicha tadqiqotlariga, taniqli adabiyotshunoslarning O'lmas Umarbekov ijodi haqidagi turfa xil qarashlari va nazariy mulohazalari metodologik asos vazifasini bajaradi.

**Tadqiqot predmeti va obyekt.** Bitiruv malakaviy ishini yozish davomida O'lmas Umarbekovning «Odam bo'lish qiyin», «Fotima va Zuhra» romanlari asosiy obekt sifatida asos qilib olindi va bu romanlarni poetik xususiyatlari tahlilga tortildi.

**Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati.** Bitiruv malakaviy ishidan kasb-hunar kollejlari va litseylar, umumta'lim maktablarida adib ijodini o'rganish jarayonida metodik qo'llanma sifatida foydalanish mumkin. Shuningdek adib ijodiy portretini yaratishda, uning hayoti va ijodini o'rganishda foydalanish mumkin. Shu bilan bir qatorda yozuvchining romanlarini badiiy tahlil etish jarayonida metodik qo'llanma vazifasini ham bajaradi.

**Tadqiqotning tuzilishi.** Ish kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, hajmi -63 sahifadan iborat.

# I BOB

## ADIB IJODI VA ROMANCHILIK

### TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI

Mustaqillik yillariga kelib badiiy adabiyotda katta o‘zgarishlar vujudga keldi. Inson ruhiyatini, uning xarakter xususiyatlarini haqqoniy tarzda ifodalash an’anasi o‘ziga xos tarzda yuzaga chiqdi. Shu jihatdan qaraydigan bo‘lsak, iste’dodli yozuvchi O‘lmas Umarbekov ijodidan o‘rin olgan badiiy asarlar ham yuksak darajada badiiylik xususiyatlariga ega ekanligini kuzatamiz. Yetuk ijodkor Muhammad Ali qayd qilganidek: “Hozir har bir yozuvchi o‘z qarashi, adabiy tushunchasi, imkoniyatlarni tahlildan o‘tkazmoqda. Oqsoqol yozuvchilardan tortib to endigina ilk kitobi chiqqan qalamkashgacha bu jarayonni boshdan kechirmoqda, xulosalar chiqarmoqda. Buning ilk alomatlari oshkoralik davrida namayon bo‘la boshlagan edi. Oshkoralik jarayoni bu ma’noda ijobiy ahamiyat kasb etdi, ijodkorlarni haqiqatni dadil aytishga, insoniylikka qarshi illatlarni ochib tashlashga chorladi. Istiqlool bunga yangicha mazmum va shiddat bag‘ ishladi, adabiyotda, ta’bir joyiz bo‘lsa, tabiiy xillanish yoki tozarish boshlandi”<sup>3</sup>.

Unga qadar ham badiiy adabiyotimizda hayotning murakkab qirralarini, inson ruhiyatidagi quvonch-u, iztiroblarini talqin etuvchi o‘nlab asarlar maydonga kelgan edi. Ana shunday xarakterdagi yetuk badiiy asarlarni yaratgan so‘z san’atkorlardan biri O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘lmas Umarbekovdir.

O‘lmas Umarbekov 1934 yil Toshkentda tug‘ilgan. O‘rta maktabni tugatgach, O‘rta Osiyo Davlat universitetining (hozirgi Mirzo Ulug‘bek nomidagi milliy universitetning) filologiya fakultetiga kirib, 1956 yilda uni a'lo baholar bilan bitirdi. “Men ham yoshligimda ko‘p narsalarga qiziqqanman, -deb hikoya qilgan edi yozuvchi, keyinchalik uchuvchilikni orzu qilgan edim, bog‘bon ham bo‘lmoqchi bo‘lganman, ammo adabiyot hamma orzulardan kuchlilik qildi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, o‘rta maktabni tugatganimda, hech ikkilanmasdan,

---

<sup>3</sup> Muhammad Ali. Tozarish yillari. Mustaqillik davri adabiyoti. Adabiy-tanqidiy maqolalar, badialar. –T., G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodi uyi. 2006. 127-bet.

Toshkent dorilfununining filologiya fakultetiga kirdim. Nazarimda, adashmagan ekanman. Endi bo`lsa, adabiyotsiz, badiiy ijodsiz hayotimni tasavvur qilolmayman”. Respublika radiosida oddiy muharrir sifatida ish boshlagan O`lmas Umarbekov uzoq yillar davomida shu yerda bosh muharrir bo`lib ishladi. Qariyb o`n yilga yaqin "O`zbekfilm" kinostudiyasiga boshchilik qildi. 1982-yilga kelib, O`zbekiston Madaniyat vazirining o`rinbosari, keyinroq vazir bo`lib faoliyat ko`rsatdi.

Ko`p o`tmay, u O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga rais etib saylandi (1985). Ayni chog`da Osiyo va Afrika yozuvchilar birdamlik qo`mitasining raisi etib tayinlandi. Nihoyat, 1989-1991-yillarda Respublika Vazirlar Mahkamasi Raisining o`rinbosari bo`lib ishladi. U qaysi jabhada, nima ishda ishlamasin, hamisha el-yurt g`ami bilan yashadi. Ayniqsa, badiiy asarlarida ular xoh hikoya, xoh roman, xoh sahna asari bo`ladimi, hamma-hammasida insonlardagi ma'naviy-axloqiy fazilatlarni ardoqlashga, ulug`lashga intildi.

O`lmas Umarbekov qariyb qirq yil tinimsiz izlanish, ijod bilan band bo`ldi. U o`nlab hikoyalar, qissalar va romanlar yozgan. Bulardan “Odam bo`lish qiyin”, “Fotima va Zuhra” romanlari, “Qiyomat qarz”, "Shoshma quyosh", "Oqar suv", “Sud”, “Komissiya”, “Kuzning birinchi kuni”, “Arizasiga ko`ra”, “Kurort”, “Er yonganda” kabi dramatik asarlari shuningdek, “Ikki soldat haqida qissa”, “O`zgalarni deb”, “Qalin qorlar bag`ridagi uchrashuv” kabi kinofilmlar uchun senariylar yozdi. “Odam bo`lish qiyin” romani O`zbekiston yoshlar tashkilotining mukofotiga (1971), “Ikki soldat haqida qissa” filmi Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotiga (1977), “Damir Usmonovning ikki bahori” qissasi esa N.Ostrovskiy nomidagi sobiq ittifoq yoshlar tashkilotining mukofotiga (1984) sazovor bo`lgan.

O`lmas Umarbekov lirik kayfiyatli adib. U o`z ijodini asosan nasrga bag`ishladi. Ilk hikoyalari bilanoq u o`quvchilarning diqqatini o`ziga tortdi. Bunday hikoyalar bir necha kichik to`plamlarni tashkil qildi. To`plamlar esa, kitoblar daryosiga tushgan oqar suvdek tezda o`tib ketdilar. Shuni ta'kidlash kerakki, O`lmas Umarbekovning hikoyalarida yoqimli havo va nur ko`p. U

hayotdagi har bir hodisani falsafiy mushohada etadi. Undan xulosa chiqarishga intiladi yoki o`quvchini shunga undaydi. Uning hikoyalarini o`qigan kitobxonda hayotga, insonga muhabbat va qiziqish ortib boradi.

O`lmas Umarbekov qalamiga mansub asarlarning qahramonlari turli fe'l-atvorga, turli taqdirga ega. Turli davrlarning kishilari bo`lishi bilan bir qatorda, o`z davrining tipik vakillaridir. Shuning uchun asar qahramonlari ba`zan ijtimoiy muhitning qurboniga aylangan. Lekin adibning qalbi ularni bir nurli nuqtada birlashtirib turadi. Bu qahramonlar ezgulik izlovchilar, ezgulik istovchilar, sog`inuvchilar, zulm yoki beshafqatlik qarshisida bo`yin egmovchilar bularning barcha-barchasi yozuvchi yuragida tug`ilgandir. O`lmas Umarbekov barcha yozuvchilar qatori hayotning achchiq-chuchugini totgan, xiyonatni, shafqatsizlikni, munofiqlikni ham o`z boshidan o`tkazgan, ammo bu kabi illatlar qarshisida ojiz qolmagan, yaxshilikka ishongan, haqiqatga suyangan ijodkor bo`lganligi bilan alohida ajralib turadi.

“Odam bo`lish qiyin”, “Fotima va Zuhra” kabi romanlarini yoki “Sevgim, sevgilim”, “Yoz yomg`iri”, “Jo`ra qishloq” kabi qissalarini, yuzga yaqin hikoyalarini o`qiymizmi yoki “Shoshma, quyosh”, “Qiyomat qarz”, “Komissiya”, “Kuzning birinchi kuni” singari sahna asarlarini tamosha qilamizmi, Abdulla, Gulchehra, Oypopuk, Munisxonlar, Sanobar Kamolova, hatto yoshini yashab qo`ygan qariyalar ham hayotdan umidlarini uzmaydigan shaxslar sifatida ko`z o`ngimizda jonlanadi. Ba`zan xato qiladilar, ba`zan mag`lub bo`ladilar, gohida g`oliblik mayidan mast bo`ladilar. Shunda ham yashamoq lazzatini boy bermaydilar. Ezgulikka, ozod hayotga faqat to`g`rilik yo`li bilan bormoqlik mumkinligini anglashga intiluvchi obrazlar tizimini yaratadi.

O`lmas Umarbekovning hikoyalarida o`z farzandiga mehri baland onalar obrazini uchratishimiz ham bejiz emas. Biroq, ularni bir-birlariga o`xshatish mumkin emasligini his qilamiz. Ularning har birlari farzandlarini o`zlaricha qadrlaydilar va mehr beradilar. To`g`ri, ona siymosini yaratish jarayonida, hayotga teran yondashadi, o`zbek ayolining o`ziga xos jihatlarini, xarakter xususiyatlarini mahorat bilan talqin etadi. Solihabibi (“Er yonganda”), Sevara xola (“Kuz

havosi”), raisa Maxpiratning onasi (“Xusan”), bularning hayotlari ham turfa xil xarakterga ega.

O‘lmas Umarbekovning ”Odam bo‘lish qiyin” romanida inosn xarakterining shakllanishi bilan birgalikda, ijtimoiy muhit ta’sirida o‘zgarib borishi, bolalikning beg‘ ubor onlarini unutib, hayot murakkabliklarini ba’zan anglab, ba’zan anglamay qo‘yilgan qdamning iztirobli onlarini haqqoniy tasvirlaydi. Roman haqida so‘z yurutgan adabiyotshunos S. Mirzayev shunday yozadi: ”O‘lmas Umarbekovning ”Odam bo‘lish qiyin” romanida odob-axloq va e’tiqod masalasi markaziy o‘rinda turadi. To‘g‘ ri, bu roman ayrim kishilarga faqat achchiq muhabbat qissasigina bo‘lib tuyulishi mumkin. Aslida esa romanda Abdulla va Gulchehraning sevgi sarguzashti asosida inosn xarakterining murakkabligi, yoshlarimiz ma’naviy dunyosining tengligi va chuqurligi ochib berilgan. Shu boisdan romanga oddiy muhabbat qissasi debgina emas, balki 60-yillardagi hayot qissasi deb ham qarash lozim”<sup>4</sup>.

Darhaqiqat roman sujetidan o‘rin olgan voqealar silsilasida shakllangan, insoniy fazilatlarga ega bo‘lgan shaxslar obrazini aks ettirish bilan birgalikda, davrlar o‘tishi bilan inosniy fazilatlarini yo‘qota boshlagan shaxs fojealari haqqoniy tasvirlangan. Asarning ilk sahifalarida keltirilgan afsona xarakteridagi hikoyatda achchiq hayot haqiqati mujassamlashgan. Hikoyatdan kelib chiqadigan badiiy g‘ oya asar sujetiga monand holda o‘z ifodasini topgan. Hikoyatda qayd qilingan voqealar hayot murakkabliklarni boshdan kechirgan insonni teranroq atrofga razm solishga undaydi. Inson turli xil voqealar silsilasida ulg‘ ayib, shakllanib boradi. Ammo hayot ziddiyatlari inson ma’naviyatini, uning xarakterini yanada teranlashtiradi. Xarakterdagi salbiy illatlar esa, inonni tanazzul sari yetaklaydi. Shu jihatdan hikoyatda keltirilgan voqealardan saboq chiqarishga, inson hayoti haqida asosli xulosalar chiqarishga undaydi. Shu jihatdan bu hikoyat inson ma’naviyatini, uning borlig‘ ini, qarashlarini o‘zida umumlashtirgandir. Masalan: ”Yana hech kimdan sado chiqmadi. Oradan ancha vaqt o‘tdi. Og‘ ir

---

<sup>4</sup> Mirzayev S. O‘zbek romanchiligi. O‘quv qo‘llanma. –Samarqand, SamDU nashri, 1998. 79–bet.

skunatni Suqrotdek keksa bir olim buzdi. Shohim, ro‘parangizda bosh egib turganlar mendan yosh. Men esa dunyoga qachon kelganimni unutganman, dunyoning barcha achchiq-chuchugini tortganman. Shularning qonidan kechsangiz men aytay? –Ayt! Shunda keksa odam dedi: O‘g‘ lingizning dunyoda tengi bo‘lmaydi. Na kuchda, na aqlda. Ikki oyligida ikki yoshlik bolaning ishini qiladi, ikki yoshida esa yigirma yoshlik yigitday bo‘ladi. O‘n yoshida o‘zini fir‘avn e‘lon qiladi. uning dastidan vayron bo‘lmagan uy, mamlakat qolmaydi. Shuning uchun ham umrining ikkinchi yarmi pushaymonda azobda o‘tadi.

- Jallod! –qichqirdi shunda shoh va tizzasida o‘ynab o‘tirgan o‘g‘ lining bag‘ riga bosadi. Qirq kunlik bola birdan otasining soqoliga chang solib, yarmini yulib oldi. – Gapimning birinchi isboti bu! –dedi keksa olim. Shoh quloq solmadi. Olimni olib chiqib ketishdi”<sup>5</sup>.

Yillar o‘tishi bilan Suqrot bashorat qilgan hukm hayotda o‘z aksini topadi. Oллоhdan tilab olgan yolg‘ iz farzandi o‘z otasini daryoga g‘ arq etadi. Buning zamirida juda katta ma‘no mujassamlashgan. Iboratomuz bu hikoyatda inson xarakterdagi turfa xil o‘zgarishlarni bejizga bashorat etilmaganligini teranroq his etamiz.

Roman sujetidagi voqealar silsilasida ham xuddi mana shu holatlarga monand bo‘lgan tasvirni kuzatamiz. Romanda bolalikning beg‘ ubor onlarini hali unutmagan, ammo hayot tashvishlari insonni turfa xil holatlarga solishni, uning botiniy olamidagi tuyg‘ ular esa davrlar o‘tishi bilan o‘zgarib borishini yozuvchi mahorat bilan talqin eta olgan. Asarda endigina maktabni tugatgan Abdullaning ona qishlog‘ iga qadam qo‘yishi, uning o‘y-xayollaridagi orzularni beg‘ uborligini asarning ilk sahifalarda ko‘rish mumkin. Mingbuloqqa qadam qo‘yar ekan, bu yerning go‘zalligini, odamlarning beg‘ ubor qalb egasi ekanligini teran his etadi. Xojar onasining unga bo‘lgan mehri o‘zgacha ekanligini yillar o‘tsa-da, unuta olmaydi. Bu davrlarda undagi shakllanib kelayotgan xarakter bilan uzviy bog‘ liq holda o‘z orzulari yo‘lida kurashuvchan shaxs sifatida taassurot uyg‘ otadi. Xojar

---

<sup>5</sup> Ўлмас Умаберков. Танланган асарлар. Уч жилдлик. III жилд. Романлар. –Тошкент, «Шарқ» 2007. 7-бет.



xolaning sodda, ammo mag‘urona fikrlari uni hayotga bo‘lgan munosabatlarini shakllantiradi. Shuning uchun qishloq hayoti, odamlarning og‘ir va mashaqqatli mehnati haqida o‘z xayollari bilan olishadi. Bu o‘rinlarda uning endigina mustaqil hayotga qadam tashlaganligini, keyinchalik esa uning xarakteridagi o‘zgarishlarni voqealar silsilasida teranroq his etamiz.

Jamiyat badiiy - estetik tafakkuri darajasining ko‘zgusi bo‘lmish roman janri tardijan taraqqiyot sari yuksalar ekan, aynan jamiyat taraqqiyotidagi o‘zgarishlar badiiy adabiyotga o‘z ta‘sirini ko‘rsatish bilan bir qatorda, roman janrining shaklan va badiiy jihatdan o‘zgarishlariga sabab bo‘ldi. Aynan mana shu jarayonning o‘zi roman janrining ichki evrilishlarini tahlil va tadqiq etish orqali janr tarkibidagi o‘zgarishlarni anglash mumkin.

XX asrda vujudga kelgan bu janr taraqqiyotida bir qator adabiy – tanqidiy mulohozalar vujudga kelganligini kuzatish mumkin: ”...roman janri xususidagi bahs va munozaralar, tahlil va taxminlar hamda tadqiqotlar roman tabiatidan kelib chiqib bildirilgan bo‘lishi bilan birga, jamiyat badiiy – estetik tafakkuri darajasi, uning botiniy evrilishlari, inson va jamiyat, tabiat va inson o‘rtasidagi muvozanat, bir – birini anglash yoki begonalashuv sabablari, ularning o‘zaro anglash jarayoniga ijobiy yoki salbiy ta‘sirini ko‘rsatuvchi omillar tahlilidir”<sup>6</sup>.

Darhaqiqat, milliy istiqlol sharofati bilan o‘zbek romannavislari bugungi kunda jahon romanchiligi bilan muloqotga kirishmoqdalar. Romanda talqin etilgan g‘oya, romanga xos tafakkur milliylikdan umumbashariy mezonlarga qarab harakat qilayotganligini ijobiy baholash mumkin.

Roman jamiyat badiiy – estetik tafakkuri mahsuli sifatida yuzaga kelar ekan, milliy istiqlol davrida yaratilgan romanlarda ijtimoiy muhitning turfa xil holatlarini inson xarakteri bilan uzviy bog‘liq holda yoki inson tafakkuridagi evrilishlarni haqqoniy aks ettirish bilan alohida ajralib turadi. Bu jarayonda iste‘dodli yozuvchi O‘lmas Umarbekovning o‘ziga xos janr taraqqiyotidagi o‘rni mavjud. Milliy istiqlol davri o‘zbek romanchiligi nafaqat an‘anavaiy roman janri imkoniyatlarini

---

<sup>6</sup> З. Пардаева. Ўзбек романи поэтикаси. –Т., Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2003. 19-бет.

boyitdi, balki ilgʻ or jahon romanchilik maktabidan oziqlandi, baʼzi hollarda taassub qildi. Shu bilan birga, oʻzbek romani poetikasining badiiy mukamallashishiga oʻzbek xalqining boy madaniy merosi ogʻ zaki ijodi ham ijobiy taʼsir koʻrsatdi.

Yozuvchining romanchilik taraqqiyotidagi oʻziga xos oʻrni shundan iboratki, sobiq shoʻrolar davrida hayotning murakkab qirralari bilan bir qatorda, insonning botiniy olamidagi qarama – qarshiliklarni haqqoniy yoritib bergan.

Adabiyotshunos Nayim Karimov “Tarix va adabiy jarayon” nomli maqolasida alohida qayd qilib oʻtganidek: “Shoʻrolar davlatining milliy siyosati oʻzbek xalqining tarixiy oʻtmishini na ilmiy va na badiiy adabiyotida haqqoniy aks ettirish imkonini berdi. Bu siyosatga koʻra, oʻzbek xalqi davlatchiligini boshlab davom ettirgan barcha podsho, xon va amrlar zolimlar, istilochilar, jalodlar boʻlishgan. Nafaqat podsholar, hatto Navoiy singari daholar obrazi mehr bilan yaratilgan asarlarning mualliflar ham tarixiy feodal oʻtmishni ideallashtirishda ayblanganlar. Ana shunday siyosiy – ijtimoiy sharoitda oʻzbek adabiyotida roman janrning rivojlanishi oson emas edi”<sup>7</sup>.

Odatda roman deganda xalq va mamlakat tarixining muhim sahifalarini tasvir etishga, oʻtmishda yashagan buyuk ajdodlarimiz hayotini badiiy mujassamlashtirishga bagʻ ishlangan yirik epik asarlar bilan bir qatorda, inson hayotidagi fojealarni, uning tafakkuridagi evrilishlarni haqqoniy yoritib beruvchi yirik epik asarlar koʻz oldimizga keladi. Roman janrining paydo boʻlishi ham ana shunday asarlar bilan boshlangan. Ogʻ ir bir sharoitda inson tafakkuridagi ziddiyatlarni real voqeylik asosida oʻzaro bogʻ liq boʻlgan muhitning turfa xil xususiyatlari orqali aks ettirish anʼanasi yozuvchi Oʻlmas Umarbekov romanlarida yetakchilik qiladi.

Adibning romanlariga asos qilib olingan voqealar silsilasi, ijtimoiy muhitda oʻziga xos oʻringa ega boʻlgan shaxslar fojeasini aks ettirish jarayoni bilan izohlanadi. Shuning uchun hayotiy ziddiyatlar inson dunyoqarashiga, uning

---

<sup>7</sup> Н. Каримов. Тарих ва адабий жараён. Қаранг: Мустақиллик даври адабиёти. Адабий – танқидий мақолалар, бадиалар. –Т., Ғафур Ғулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи, 2006. 59-бет.

ma'naviy olamiga u yoki bu darajada o'z ta'sirini ko'rsata olganligini haqqoniy yoritib berganligi bilan izohlanmoqda.

Adib romanlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, adabiy jarayonning faollashishi, izchillik bilan rivojlanishi, ijodiy an'analarning yetakchilik qilishi bilan birgalikda, ijodiy adabiy muhit yuzaga kelganligidan dalolat beradi. Ijodkor shaxs birinchi navbatda o'zi anglagan, anglashga uringan voqealar silsilasini epik planda aks ettiradi. Shuning uchun ijtimoiy voqelikni tafakkur qilar ekan, uning eng murakkab qirralarini roman sujetiga asos qilib oladi. Bu esa ijodkor ongida yuz berayotgan evrilishlarni yuzaga chiqaradi. Mazmunan yaqin o'tmishdagi xalq taqdiri, uning kechmishi davr muammolari zahirida shakllangan badiiy xarakteri namoyon bo'ladi. Badiiy ijod qay tarzda shakllansa ijodiy jarayonga munosabat ham, uning tafakkur mahsuli bo'lgan badiiy epik asarlarni o'ziga xos uslubda talqin etadi.

70 – yillar romanchilikda realistik metod yetakchilik qilgan bo'lsa-da, O'lmas Umarbekov romanlari xuddi shu tamoyillar asosida yuzaga kelgan. O'sha davrda jamiyatda kechayotgan murakkab hayot tarzi inson tafakkuridagi ziddiyatlarni ham yuzaga chiqardi. Milliy istiqlol ta'sirida jamiyatda kechayotgan tub islohotlar natijasida ro'y berayotgan o'zgarishlarning inson ongida sintez qilinishi davr romanchiligiga turfa xil xarakterdagi badiiy obrazlarni olib kirdi.

Shu sababdan ham yozuvchining "Fotima va Zuhra" romanidagi badiiy obrazlar galeriyasi ijtimoiy ziddiyatlar mahsuli sifatida yuzaga chiqqanligidan dalolat beradi: "Milliy istiqlol davri romanchilikda ro'y berayotgan badiiy evrilishlar, uslubiy izlanishlar yagona maqsad yo'lida – badiiy mukammal o'zbek romanini yaratish maqsadida olib borilayotgani ijobiy holdir... Roman qaysi davrda, qaysi uslubda yaratilmasin u – falsafa, mantiq, u – mushohada. Roman – davr ko'zgusi, roman – badiiylik ilmi, shu bilan birga, u g' oya, kurash demakdir"<sup>8</sup>. Ijodkor hayot voqeayligini aks ettirish jarayonida falsafiy mushohadalarga tayanadi. Ijodkor ongida bu mushohadalar badiiy g' oya darajasiga yetgunga qadar, muayyan

---

<sup>8</sup> З. Пардаева. Ўзбек романи поэтикаси. –Т., Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2003. 27-бет.

bir fursat talab etiladi. Shu jihatdan "Fotima va Zuhra" romanida jamiyatdagi mavjud illatlarni haqqoniy ko'rsatib bera olgan.

XX asrda yuz bergan siyosiy ixtiloflar va buhronlar oqibatida dunyoda juda keskin o'zgarishlar yuz berdi. Bu holat inson tafakkuriga ham o'zining sezilarli ta'sirini ko'rsatdi. Shu jihatdan har bir jamiyatning badiiy – estetik tafakkuri mahsuli bo'lgan roman janri ham har bir jamiyatning o'ziga xosligini e'tirof etgan holda rivojlandi. Davr ziddiyatlari shu qadar keskin va murakkab ediki, bu hol inson ongida, tafakkurda o'z aksini namoyon qila oldi. Inson hayotida kechayotgan iqtisodiy qiyinchiliklar uning tafakkurida norozilik kayfiyatini yanada kuchaytirdi. Ammo adolat va haqiqat uchun kurashuvchi shaxslar har qanday jamiyatda mavjud bo'lgani kabi, og'ir murakkab sharoitda ham bu tushunchalarga e'tiqod qilgan shaxslar timsolini aks ettirish an'anasi o'z ifodasini topdi.

Adabiyotshunos Qozoqboy Yo'ldoshev qayd qilganidek: "Adabiyot va davr munosabatini aniqlash, bir davrdagi milliy adabiyotning boshqasidan farqini to'g'ri tayin etish hamisha ham mushkul masala bo'lgan. Chunki davr – zamon deb atalmish bir o'lchamli adabiy hodisaning o'tkinchi bir bo'laki, adabiyot esa uch o'lchamli o'tkinchi tushuncha bo'lmish davrga xos belgilarning odamda namoyon bo'ladigan omonat jihatlarini abadiyatga muhrlashga urinadigan san'at turidir. Shu bois hamisha ham adabiyotni muayyan davrlarga ajratish, ularni nomlash, adabiyot taraqqiyotidagi bosqichlarni tayin etish osonlik bilan bo'lmaydi"<sup>9</sup>.

Darhaqiqat, yozuvchi O'lmas Umarbekovning "Odam bo'lish qiyin" romani sobiq sho'ralar davrida yaratilgan bo'lsa-da, hayot voqeeligini, murakkab taqdirlarni mahorat bilan talqin etilganligini kuzatamiz. Roman voqealari zamirida shakllangan badiiy xarakterlar, turfa xil shaxslarning ma'naviy dunyoqarashini, ularning tafakkuridagi o'zgarishlarini, insoniylik qiyofasidan mahrum bo'la boshlagan shaxslar fojeasini, shaxs va jamiyat, shaxs va shaxslararo ziddiyatlarni haqqoniy yoritilganligi bilan alohida ajralib turadi. Ammo "Fotima va Zuhra" romani mustaqillik davrining mahsuli bo'lib, bunda ijtimoiy muhitdagi qarama –

---

<sup>9</sup> К. Йўлдошев. Ёник сўз. Адабий ўйлар. –Т., «Янги аср авлоди», 2006. 171-бет.

qarshiliklarni, poklik, ezgulik tushunchalarning naqdar buyuk vosita ekanligini, shu bilan birga adolatsizlik, shafqatsizlik kabi xususiyatlar inson xarakterini shakllanishiga xizmat qilganligini ham kuzatamiz.

Roman haqida soʻz yurutgan yozuvchi Erkin Usmonov shunday yozadi: “Oʻtgan yillar davomida boshqa oʻnlab asarlar yaratilgan, nashr etilgan, oʻqilgan, oʻqilmagan va balki allaqachon unutilib ketgan ham boʻlishi mumkin. Ammo, “Fotima va Zuhra” romani unutilmadi. Uning keyingi “hayoti” yanayam goʻzalroq va mazmunliroq boʻldi. Shu maʼnoda bu kitobni xuddi tuqqan onasi hayotdan koʻz yumganu, boshqa oliyjanob va mehridaryo kishilar yoʻrgaklab olgan chaqaloqqa qiyoslash mumkin. Yaʼni roman “Sharq yulduzi” jurnali variantlaridan keyin, yana bir necha bor kitob holida nashr etildi... ammo “bir kam dunyo” deganlaridek bu maqtovlaru tanqidlarni eshitish, umuman, romanni kitob holiga qoʻlga olish, spektaklni tamosha qilish, filmni koʻrish Oʻlmas akaning oʻziga nasib etmagan ekan. Taassufki, bu paytda hayotdan koʻz yumgan edi”<sup>10</sup>.

Yozuvchi Erkin Usmonov roman xususiyatlari haqida soʻz yuritib, asarning mukammal badiiy xarakteraga ega ekanligini alohida taʼkidlab, afusus bilan bu tushunchalarni, hatto roman nashr etilgandan soʻng muallifning oʻzi koʻrmaganligini afsus bilan qayd etadi. Asarda bir-biriga zid boʻlgan tushunchalar, badiiy xarakterlar talqinini kuzatar ekanmiz, muallif asar voqealari uchun asos boʻlgan hayotni mukammal oʻrganishi natijasida teran tahliliy obrazlarni yuzaga chiqarganligi bu esa ijodkordan juda katta badiiy mahorat talab etganligini his qilamiz. Shuning uchun yozuvchi va ijodkor Erkin Usmonov roman haqida fikr bildirganda dedektiv xarakterdagi asar ekanligiga alohida urgʻu bergan. Shunday boʻlsa-da, roman badiiy xususiyatlari haqida soʻz yuritgan muallifning oʻzi janr tabiati haqida kitobxon hukum chiqara qolsin, - degan fikrni taʼkidlaydi. Asardagi voqealar tizimi romanning oʻziga xos janriy koʻrinishlarni namoyon qilib, kitobxon qalbidan oʻchmas oʻrin olganligi ham bejiz emasdir. Shuning uchun hayotning eng ogʻir va murakkab qirralarini teran his qilgan adib, asar voqealar silsilasida

---

<sup>10</sup> Э. Усмонов. Сўнгсўз ўрнида. Қаранг: Ў. Умарбеков. Фотима ва Зухра. Роман. –Т., «Янги аср авлоди», 2005. 264–бет.

ijtimoiy hayotdagi eng xarakterli ziddiyatlarni asos qilib olganligiga o'quvchi ishonch hosil qiladi. Shuning uchun har qanday jamiyatda adolat va adolatsizlik, poklik va nopoklik tushunchalari mavjud bo'lsa-da, ammo mana shunday xislatlarni o'z xarakterida mujassamlashtirgan shaxslarning mavjudligiga ham e'tibor qaratmoq lozimdir.

Shu sababdan mustaqillik davri o'zbek romanchiligining taraqqiyot tamoyillarini teranroq anglash va shu orqali so'z san'atkorlarning badiiy mahorati va uslubini namoyon qiluvchi holatlarni teran anglashga ehtiyoj sezilmoqda. Yangilanayotgan jamiyatda milliy istiqlol ta'sirda, inosn tafakkurida, ruhiyatida kechayotgan poklanish jarayonida, bu roman tarkibida o'z inikosini topgan. Shuning uchun inosn hayotining o'ziga xos murakkabliklari, ziddiyatlari bilan chambarchas bog'liq holda talqin etilishi bejiz emas edi. Bu davr romanchiligida faqat hayotiy ziddiyatlar yoki xarakterlar o'rtasidagi badiiy konfliktlar emas, inson tafakkuridagi evrilishlarni, uning ongida kechayotgan tuyg'ularni murakkab davrning voqealari asosida talqin etadi.

Adabiyotshunos olimi Marhabo Qo'chqorova qayd qilib o'tganidek: "Kuchli to'fonlar chog'ida marjon qoyalari har tomonga sochilib ketar ekan. Ammo to'fon tingach, marjonlar yana qaytadan yig'ilib – yig'ilib yana oldingidek haybatli marjon qoyalarni paydo etarkan. Iste'dodli shaxslarni ham o'sha okean tubidagi marjon qoyalarga o'xshatish mumkin. Lekin har qanday davr to'fonlari haqiqiy iste'dodga yo'g'irilgan bu "marjon qoyalari"ni qulata olmaydi. Ma'lum bir muddat to'zg'itib yuborilishi mumkin, ammo ular marjon qoyalari singari, albatta, to'fon tingach, yana ulkan va buyuk iste'dodlarini ko'z-ko'z etib namoyon bo'lishaveradi"<sup>11</sup>.

Darhaqiqat, yozuvchi O'lmas Umarbekov tominidan yaratilgan romanlar turfa xil davr voqealarini o'zida mujassamlashtirgan bo'lib, insonning ruhiy iztiroblarini haqqoniy yoritib berganligi bilan alohida ajralib turadi. Shuning uchun har ikki roman adabiy tanqidchilikda haqqoniy baholangan bo'lib, yozuvchining

---

<sup>11</sup> M. Kўчқорова. Бадий сўз ва рухият манзаралари. –Т., «Мухаррир» нашриёти, 2011. 168–бет.

yuksak iste'dod sohibi ekanligini asoslab berganligi bilan ajralib turadi. Har qanday tizim va jamiyatning ziddiyatlarini, xarakterlararo qarama-qarshiliklarni, inson xarakteridagi salbiy illatlarni, uning ruhiyatidagi o'zgarishlarni ijtimoiy muhit silsilasida yoritib bergan. Xuddi mana shu jihatlar adabiy tanqidchilikda e'tirof etilgani holda, adib romanlaridagi badiiy tasvir tarkibidan o'rin olgan ezgulik va yaxshilik, adolat va adolatsizlik, haq va haqsizlik kabi tamoyillarning inson tafakkur dunyosiga va badiiy xarakteriga singdirilganligi bilan izohlanadi.

Yozuvchi O'lmas Umarbekov romanlarida ijtimoiy hayotdagi muhitning inson xarakteriga kuchli ta'sirini haqqoniy ko'rsata olgan. Shu jihatdan inson xarakterida mujassamlashib yovuzlik va adolatsizlik urug'ining boy ko'rsata boshlagan holatlarini, insonning moddiy boyliklar uchun ma'naviy qiyofasini yo'qota boshlagan lahzalarni mahorat bilan talqin etgan. Bu romanlarda inson tafakkurdagi evirishlardan tashqari, uning botiniy olamidagi ziddiyatlarni, ma'naviy qashshoqlanish jarayonlarini turfa xil voqealar silsilasida badiiy talqin etgan.

Xullas, yirik so'z san'atkori O'lmas Umarbekov o'zbek romanchiligining taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'sha olganligi adabiy tanqidchilikdagi nazariy qarashlar ham bu tushunchani isbotlayotganligini alohida ta'kidlamoqchimiz. Shuning uchun turli davrlarda yuzaga kelgan har ikki roman inson fojeasini, uning xarakteridagi o'zgarishlarni mahorat bilan talqin etilganligida namoyon bo'lgan.

## II BOB

### “ODAM BO‘LISH QIYIN” ROMANIDA

#### RUHIY IZTIROBLAR TALQINI.

##### 1-fasl. Asarda xarakterning shakllanishida muhitning roli.

O‘zbek adabiyotining turli janrlarda ijod qilgan iste’dodli yozuvchilarimizdan biri O‘lmas Umarbekovdir. Adibning har bir asari kitobxon qalbini larzaga solgan va hayotning, insonning murakkab qirralarini badiiy aksa ettirganligi bilan alohida ajralib turadi. Adibning ijodi haqida so‘z yurutgan adabiyotshunos L. Qayumov shunday yozadi: “O‘lmasning hikoyalarida yoqimli havo va nur ko‘p. U hayotdagi har bir hodisani falsafiy mushohada etadi. Undan xulosa chiqarishga intiladi yoki o‘quvchini shunga undaydi. Uning hikoyalarini o‘qigan odamda hayotga, insonga muhabbati ortadi, uni o‘qigan odam shodroq, yengil yashaydi...natijada u prozamizda yangi atmosfera, kayfiyat va intonatsiya paydo qildi”<sup>12</sup>.

O‘lmas Umarbekovning turli janrlardagi asarlari bilan bir qatorda zamonaviy romanlarida o‘zgacha bir badiiylik mavjud. Adibning ko‘plab asarlarida inson ruhiy iztiroblari talqini yetakchilik qiladi. Shuning uchun ham bu asarlardagi shaxs talqiniga alohida e’tibor bilan qarash darkor. Chunki har bir obrazning vujudga kelishi, ma’lum bir voqelikka ta’sir etishi, hamda uning o‘ziga xos xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi. “Odam bo‘lish qiyin” romanida turli ijtimoiy voqeliklar, turfa xil obrazlarning o‘ziga xos xarakter qirralarini talqin etadi. Asardagi voqealar rivoji Abdullaning Mingbuloq qishlog‘ iga kelishi bilan boshlanadi. Toza tabiat, oqar suvlar, naqadar inson ko‘ngliga yoqimlidir. Abdulla ham shu tarzda tabiatga, muhitga moslashib Hojar buvisinikiga mehmon bo‘lib keldi: “Hojar buvi ham nevarasini yaxshi ko‘rardi. U kelganda o‘tkazgani joy topolmay qolardi, agar ko‘cha-ko‘yda bolalar bilan o‘ynab, u yer-bu yeri chaqa bo‘lib qaytsa, jig‘ ibiyroni chiqardi. Abdulla uning yakka-yu yagona nevarasi edi.

---

<sup>12</sup> L. Qayumov. Tanishing: O‘lmas Umarbekov. Qarang: O‘.Umarbekov. Saylanma. Uch jildlik. Birinchi jild. Hikoyalar. Qissalar. – Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1984. 5-bet.



U o‘zi ikkita farzand ko‘rgan edi. Bittasi, Abdullannng onasi Shahodat, ikkinchisi, kenjasi Obid bo‘lib, u shu o‘gli bilan turardi. Shaharga, qizirikiga borganda, ikki kundan ortiq turolmas, shahar shovqini boshini og‘ ritardi, siqilardi. Buning ustiga u anchagina qari bo‘lsa ham, mustaqil hayot kechirishni istardi. O‘gli bilan turishiga qaramay, o‘z ro‘zg‘ orini o‘zi tebratardi va ko‘pincha o‘gli unga yordam berishi o‘rniga, o‘glining kam-ko‘stlarini u to‘g‘ rilab yurardi”<sup>13</sup>.

Tasvirdan ko‘rinadiki Hojar buvi o‘z nevarasiga juda katta hurmat bilan qaragan. Nafaqat u balki, tog‘ asi Obid aka ham uni xursandchilik bilan kutib olib u bilan tez – tez bedana oviga chiqib turar edi. Ko‘rinib turibdiki, inson beg‘ ubor niyatlar bilan tabiat mo‘jizalariga maftunkor hayot kechiradi. Ammo yillar o‘tishi bilan inosnning o‘zi tabiatga yovuzlik qila boshlaydi. Bu holat asta – sekinlik bilan uning xarakterida yuksalib boradi. Bolalikning beg‘ ubor damlarini go‘zal tabiat qo‘ynida o‘tkazgan Abdullo yillar o‘tib o‘z insoniy fazilatlarini yuqotib borganligini aardagi voqealar rivojidan anglab olamiz. Ammo asarda biz kutmagan voqealar ham shu beg‘ uborlik bilan boshlanadi. Chunki hayotning har bir to‘siqlariga Abdulla kabi shaxslarning bardosh berishi o‘quvchining mulohazaga chorlaydi. Asardagi har bir obrazning o‘ziga xos xaerakter yo‘nalishi mavjud. Asarning tuguni Abdullaning Gulchehra va Sayyora bilan tanishishi bilan bog‘ liq voqealardan boshlanadi. To‘g‘ ri, asarda Gulchehra oddiy, hayotga teran ko‘z bilan qaraydigan shaxs sifatida jonlanadi. Yillar o‘tgan sayin odamlarga bo‘lgan muhabbat va ishonchi tufayli og‘ ir iztiroblar iskanjasiga qoladi. Uning bunday holatga tushishiga insonga bo‘lgan muhabbati sababchi edi. Ammo bu muhabbat kuzning xazon yaprog‘ lari kabi asta – sekin o‘z umrini “yasshab” bo‘ladi. Asardagi voqealar rivojida Sayyora va Gulchehraning o‘ziga xos xarakter shakllanishini yozuvchi mahorat bilan ko‘rsatib bergan. Yozuvchi bu talqinlarda inson xarakterini shunday ta‘riflamoqchi bo‘lgan: “Inson hayotda mazmunli yashashi hamda har bir to‘siqlarga bardosh bera olishi uni yenga olishi ham inson uchun eng katta yutug‘ dir”. Ammo insoniylikni anglay olish jihatlarini o‘ylab

---

<sup>13</sup> Ўлмас Умаберков. Танланган асарлар. Уч жилдлик. III жилд. Роаманлар. –Тошкент, «Шарк» 2007. 9-бет.

ko'rsak, bunday holatlar har bir inson hayotida uchrab turishi bu tabiiydir. Shuning uchun ham inson tuyg' usi, kechinmalari, qalb iztiroblari, uning orzulari kabi insoniy tushunchalar orqali amalga oshar ekan, ba'zan o'zligimizni, ma'naviy qiyofamizni Abdulla singari hayoti iztiroblar iskanjasiga qolishini sabablarini juda kech anglaymiz.

Inson hayoti davomida kata ixtirolar qilishi, kashfiyotlar yaratishi va olimlik darajasiga yeta olishi mumkin, ammo u insonlar orasida o'z o'rnini topishi, muqaddas dargoh bo'lgan oilaning tinchligini saqlay oladigan odam bo'lishi juda qiyin. O'lmas Umarbekov shu nuqtai nazarga katta ahamiyat beradi, insonning tafakkur tarzidagi evrilishlarni, ichki ruhiy iztiroblarni hayotiy voqealar silsilasida ma'lum bir davrning muammolari asosida hayot voqealigidan kelib chiqib mahorat bilan yoritilgan.

Asarda Gulchehraning fojeali o'limi kitobxon qalbini larzaga soladi. U hayotda hali ko'p narsani anglab ulgurmasdan xiyonatning qurboniga aylandi. Axir ma'lum bir vaqt ichida o'z mehrini bergan, qalb qo'ridagi ezgu niyatlar bilan hayot kechirgan shaxs fojeasi ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Lekin fojeali taqdirning qurboni bo'lishga uning qalbidagi his – tuyg' ulargina emas, balki insonga bo'lgan muhabbati bilan izohlanadi. Voqealar rivojida Abdullaning unga xiyonat qilishi bunday fojeaning yuzaga chiqishiga sabab bo'lgan. Shu o'rinda yozuvchi ma'lum bir davrdagi ziyoli shaxslarning fojeali turmush tarzini haqqoniy yoritganligini yanada teranroq his qilamiz.

Haqiqatan ham yozuvchining bunday sermahsul ijodida sehr borligini siz – u bizga ayonligini yana bir isbotidir. Inson xarakteri bilan bog' liq turfa xil holatlarni hayotning eng murakkab va og' ir qatlamlaridagi shaxs fojeasi bilan izohlash mumkin. Yozuvchi inson badiiy xarakterini yaratishda uning qalb iztiroblarini, inson sifatidagi fojellarini mahorat bilan umumlashtirgan. Hayotda inson tafakkur tarziga ega bo'lgan oily xilqat ekanligini anglasak-da, ammo uning tuyg' ularini, iztirobu quvonchlarini hech qachon tom ma'noda anglay olmasligimizni his etamiz. Shuning uchun tafakkur tarziga ega bo'lgan inson, bu dunyoda olim emas, balki odam bo'lishini yana bir bora alohida qayd etishimizga sabab, yozuvchining

hayotiy ziddiyatlar asosida shaxs qismatidagi fojealarni, uning qalb qaridagi iztiroblarini go‘zal lavhalar asosida talqin qilgan.

O‘z mulohazalarimizni xulosalar ekanmiz, adabiyotshunos U. Normatovning quyidagi fikrlarini yodga oldik: “Bugungi adabiyotimizda, jumladan nasrimizda xilma – xil falsafiy zaminga asoslangan adabiy – ijtimoiy tamoyillar amal qilayapti. Ular orasida endigina shakllanib kelayotgani ham bor. Ularni ko‘z qorachig‘ iday asrab – ardoqlashimiz, ayni paytda ularning birini ikkinchisiga qarama – qarshi qo‘yish, birini ulug‘ lab, ikkinchisini kamsitishdan tiyilmog‘ imiz darkor, deb o‘ylayman”<sup>14</sup>. Bu fikrlarga asoslangan holda sobiq sho‘rolar davrida yaratilgan o‘zbek romanchiligining tarkibidan o‘rin olgan bir qator asarlarni, ”Jumladan ”Odam bo‘lish qiyin” romanini bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil qilsak ham, inson tafakkuridagi ziddiyatlarni, o‘zlikni anglash yo‘lidagi murakkab hayot qirralarini badiiy tadbiq etganligidan dalolat beradi. Shu jihatdan roman bugungi kunda ham badiiy qiymatini yo‘qotgan emas, -degan xulosaga kelishimiz mumkin. Asardagi voqealar silsilasi qaysi davrni aks ettirishidan qat’iy nazar, roman inson qismatini, uning murakkab va ziddiyatli hayot taraqqiyotidagi o‘rnini ko‘rsatib bera olganligi bilan alohida ajralib turadi.

To‘g‘ ri, kimdir roman sobiq sho‘rolar davrida yaratilgan, -degan hukumni chiqarishi mumkindir. Ammo romanda tasvir etilgan voqealar silsilasida inson, uning murakkab xarakter qirralari haqqoniy yoritilganligini ham alohida e‘tirof etish zarurdir. Shu jihatdan, romanni badiiy poetik xususiyatlarini, yozuvchi mahoratini o‘rganish adabiyotshunosligimizning romanchilik tarixiga bo‘lgan munosabatni ham belgilaydi. Biz tahlil qilgan bu roman tarkibidagi obrazlar tizimi, xarakter shakllanishi, ruhiy iztiroblar iskanjasiga qolgan shaxs fojealari o‘z davrining hayotiy ziddiyatlari bilan bir qatorda, inson botiniy olamidagi ziddiyatlarni ham haqqoniy tasvirlab bera olgan asarlardan biri ekanligini alohida ta’kidlashni lozim topdik. Asarda davr mafkurasi emas, balki inson xarakteridagi turfa xil o‘zgarishlar, uning qalbidagi dardu alamlar, muhitdagi ma’naviy va

---

<sup>14</sup> U. Normatov. Umidbaxsh tamoyillar. – Toshkent, “Ma’naviyat” nashriyoti, 2000. 24-bet.

axloqiy o'zni mahorat bilan yoritilganligini yana bir bor alohida ta'kidlaymiz. Har bir asar badiiylilik qonuniyatiga ko'ra, hayotni, undagi xarakterli shaxslarni badiiy talqin etadi, ammo shu bilan bog'liq holda, o'sha davr shaxslarini, ularning o'ziga xos ma'naviy olamini ham teran talqin etadi.

Yozuvchi O'lmas Umarbekov bu romanida faqat ijtimoiy muhitdagi ziddiyatlarni emas, balki o'zlikni unuta boshlagan shaxs fojealarini ham haqqoniy yoritib olgan. Asar mantiqiy jihatdan davr mafkurasini emas, balki hayotda o'z o'rnini topishga intilayotgan, ammo hayotiy murakkabliklarga bardosh bera olmagan shaxslar fojeasini ko'z o'ngimizda jonlantiradi. Ana shu jihatdan ham, roman badiiyati o'zining tasvirdagi qiymatini yo'qotmadi.

Darhaqiqat, o'zbek nasri taraqqiyotida o'z uslubi va ovozigacha ega bo'lgan iste'dod egasi O'lmas Umarbekov asarlarida inson fojealarini realistik tasvir asosida ifodalaganligini yuqoridagi roman misolida isbotlash mumkin.

## 2-fasl. Asarda xarakter va ruhiyat birligi talqini.

Soʻz sanʼatining mahsuli boʻlgan badiiy adabiyot xarakterlar yaratish sanʼati boʻlgani uchun ham boshqa sanʼat turlaridan mohiyatan farqlanadi. Adabiyotshunos A. Gʻ ofurov bu haqida shunday yozadi: ”Badiiy adabiyot jonli odamlar xarakterini yaratishi bilan muhim, zarurdir. Har bir zamon, millat adabiyoti insonni qanday nuqtai nazardan tasvirlashi bilan bir – biridan farq qiladi. Eng qisqa sheʼrlarda ham xarakterning nozik bir nuqtasi aks etganidek, epik asarlarda inson ruhiyati, maqsadlari butunligicha tasvirlanadi. Har bir janr, tur xarakterni tasvirlashdagi bichim, shaklidir. Hozirgi ilgʻ or jahon adabiyotida insonni barcha tomonlarini qamragan holda, buz – butun aks ettirish yoʻllari izlanmoqda. Xullas, badiiy adabiyot xarakter yaratish muammosini har qachongidan jadal, izchil hal qilib berishga intilmoqda. Barkamol xarakter yaratish yoʻlidagi ijodiy, ilmiy izlanishlar davom etmoqda”<sup>15</sup>.

Darhaqiqat, badiiy adabiyotda eng xarakterli xususiyatlari bilan alohida ajralib turuvchi maʼlum bir obrazlar mavjudki, ularning oʻz dunyoqarashi, oʻzining tafakkur tarzi, odam va olamga boʻlgan munosabat shakli mavjudligi uchun badiiy xarakter degan tushunchaga ega boʻlgan. Har qanday jamiyatning oʻziga xos u yoki bu tomonlari mavjud boʻlib yozuvchi Oʻlmas Umarbekovning “Odam boʻlish qiyin” romanida xarakterlararo ziddiyatlar bilan bir qatorda, inson botiniy olamidagi qarama-qarshiliklar ham oʻz ifodasini topgan. Shu jihatdan roman tarkibidan oʻrin olgan Abdulla, Gulchehra, Sayyora, Qosimjon kabi qator obrazlar misolida bu tushunchalarni asoslash mumkin.

Asardagi voqealar rivoji epizodik tasvirlarga asoslangan urush davri voqealari yoki urushdan soʻnggi murakkab hayot tasvirini oʻz tarkibiga olgan. Yozuvchi bunday tasvirlar orqali murakkab bir sharoitda inson xakteri va ruhiyatidagi ziddiyatlar bilan hayotga boʻlgan munosabatlarni badiiy talqin etgan. Asardagi quyidagi tasvirga eʼtibor qarataylik: “Abdullaning hali-hali esida, qishloqda urush yillari Dadavoy amaki degan biro dam yashardi. Qayoqdan kelib

---

<sup>15</sup> A. Расулов. Бадийлик – безавол янгилик. –Тошкнет, «Шарк», 2007. 27–бет.

qoldi bu yerga, nish qiladi, hech kim bilmasdi. Erta saharda uyidan chiqib ketib, yarim kechada qaytardi. Doim bir xil kiyinardi, to‘g‘ rirog‘ i tizzalari yamoq kalta shimi va jazirama yoz kunlari ham boshidan tushmaydigan uchi nayza soldatcha qalpog‘ idan boshqa uning hech narsasi yo‘q edi. U qishloq hayotiga aralashmas, odamlarga qo‘shilmas, lekin negadir uning nomini hurmat bilan tilga olishardi. Nima uchun shunday bolalar buni bilishmasdi. Uning kamgapligidanmi, yo salomga alik olmasligidanmi, bolalar uni xushlashmasdi, hatto undan cho‘chishardi”<sup>16</sup>.

Qayd qilingan tasvirlarda eng murakkab bir sharoit davridagi shaxslar fojeasi aks ettirilgan bo‘lsa-da, inson xarakteridagi o‘ziga xos xislatlar haqqoniy tasvirlangan. Dadavoy amakining xarakteridagi o‘ziga xos belgilar bilan bir qatorda, uning botiniy olamidagi hayotga bo‘lgan ishonch ham nafrati mavjud edi. Mana shu tasvirlardan so‘ng yozuvchi voqealar rivojiga burgut tasvirini kiritadi. Bu ramziy obraz orqali hayotiy ziddiyatlardan faryod chekkan inson qismati haqidagi tushunchalarni o‘zida mujassamlashtiradi.

Dadavoy amakining burgutni olib kelishi, Gulchehra bilan Abdullaning uni ozod etishga harakat qilishi ammo burgutning ucha olmasligini, qanotlari qirqirganligini ko‘rgan yoshlarning o‘ziga xos alamlarini asosli talqin eta olgan. Aslida burgut Dadavoy amakining eng yaqin cho‘pon o‘rtog‘ i tomonidan unga berilganligi, uning o‘zi esa urushga ketganligini keyinchalik anglab oladi. Mana shu tasvirlar orqali inson tafakkuridagi, uning ruhiy olamidagi inkor etib bo‘lmaydigan qarama – qarshiliklarni go‘zal tasvirlar orqali ifodalaydi: “Mayli, gapirmasalarining gapirmalarining, -dedi Dadavoy amaki sumkasini ko‘tarib. –Men ham yoshligimda sho‘x edim. Qo‘shnilarning na devoir, na tomi qolgan mendan. U shunday deb, hovliga tushdi-yu, shumshayib turgan burgutni ko‘rib qoldi. Mana bu ishlaring chakki bo‘pti, -dedi u hamma narsaga tushunib. Ko‘r odam hassasiz yurolmaydi. Bu burgut ham ko‘r, ham qari. Na ucha oladi, na ko‘ra oladi. Bir cho‘pon o‘rtog‘ im urushga ketayotganda menga topshirdi: senda tursin, menga

---

<sup>16</sup> Ўлмас Умаберков. Танланган асарлар. Уч жилдлик. III жилд. Роаманлар. –Тошкент, «Шарк» 2007. 24-бет.

ko'p yaxshilik qildi, qariganida xor bo'lmasin, dedi. Ikki yildan beri men boqib yuribman. Bu ishlaring chakki bo'libdi. Endi tegmaymiz, amaki, -dedi yig' i aralash Gulchehra. Ishonaman, qizim, ishonaman, -dedi amaki. Bizni urishadi deb qo'rqan bolalar, o'sha kuni juda ezilib uylariga qaytishdi. "Yaxshi odam ekan-ku, amaki?!" o'ylardi ichida Abdulla. Lekin bir hafta o'tar-o'tmas u yo'q bo'lib qoldi. U ham, burgut ham. Uning qayoqqa ketganligini uzoq vaqtgacha hech kim bilmadi. Urush tugagandan so'ng esa uning Ukrainada qahramonlarcha halok bo'lgani haqida xabar keldi. O'shanda ham yoz bo'lib, Abdulla kanikulga kelgan edi. Bu xabarni eshitib Gulchehra ikkalovi ancha qayg' urishdi. Mana shu voqea, kim biladi, nima uchundir Abdullaning xayolidan sira ko'tarilmasdi"<sup>17</sup>.

Tasvirdan ko'rinadiki, yozuvchi Dadavoy amaki obrazi orqali kitobxonni izchil izlanishiga undaydi. Shunday ekan, keksa va ko'r bo'lib qolgan burgut obrazini kiritishi bejiz emas. Bu obraz orqali Abdullaning bolalik damlariga xotira orqali qaytishi, shakllanib ulgurgan, tafakkur dunyosiga ega bo'lgan shaxsning xotira dialogi orqali o'z hayotiga, bolalik damlariga, beg' ubor onlariga qaytishi uning qalbidagi iztiroblarni, achchiq qismatning alamlarini jonlantiradi. Yozuvchi tasvirlagan voqealar silsilasida Abdulla xarakterining o'ziga xos ma'lum bir qirradi yoritiladi. Bunday deyishimizga sabab, asardagi burgut tasvirida uning o'ziga xos shijoati, keksargan bo'lsa-da, o'z avlodlariga bo'lgan an'anani kuzatamiz. Bu o'rinda Abdulla xakteri shakllanib ulgurgan, hayotning turli quvonch va iztiroblarni o'z boshidan kechirgan shaxs sifatida shakllangan edi. Shuning uchun iste'dodli ijodkor O'lmas Umarbekov hayot voqealari bilan uzviy bo'g' liq holda xarakterlar mantig' ini shakllantirgan. Bu tushunchalar nazariy jihatdan ham asoslanganligini ko'ramiz.

Adabiyotshunos olim H. Umurov qayd qilganidek: "Asardagi xarakterlar mantig' idan voqealar mantig' i, voqealar mantig' idan xarakterlar mantig' i kelib chiqadigan universal qonuniyatga bo'ysinadi. Xarakter va voqea o'rtasidagi uyg' unlik, hamkorlik shu darajada bo'lishi lozimki, voqea xakterni yaqqol

---

<sup>17</sup> Ўлмас Умаберков. Танланган асарлар. Уч жылдик. III жилд. Роаманлар. –Тошкент, «Шарқ» 2007. 28-29-бетлар.

ko'rsatishga, xarakter o'z novbatida voqeaning tipik sharoitining mohiyatini tushunishga kalit bo'lishi lozim. Pirovardida shu kalit g' oyaning tirikligini, yuquvchanligini ochishi shart. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, birinchidan sujet xarakterlar mantig' ini namoyon qiladigan voqealar silsilasidir... Ikkinchidan har qanday xarakter o'z harakatlardagi kuch-quvvatni tarixiy oqimdan oladilar, tarixiy – konkret sharoit ularni yurguzib – turg' uzadi”<sup>18</sup>.

”Odam bo'lish qiyin” romanida hayot voqealigida, sharoitiga tasvir mantig' ini uzviy bog' lagan. Romanda Abdulla hayot haqidagi turfa xil qarashlarni Gulchehra bilan o'rtoqlashar ekan, uning odam va olamga bo'lgan munosabatlari asta – sekin teranlashib boradi: ”U birinchi marata oydin kechada sayr qilishda chuqur hayajonda, har kuni, har soat ko'rib turadigan narsalari – kanal ustidagi bir yoq panjara singan ko'prik ham, yaproqlari kumush isirg' alardek yaraqlab turgan olmazor ham, qo'ying-chi, ko'zga ko'rinib turgan hamma narsa unga hozir boshqacha tus olgandek sirli va qandaydir yoqimli tuyulardi. Jimirlab oqayotgan suvga tikilar ekan, suv tagida oy bir qalqidi-yu, jilmayib uni imlaganday bo'ldi”<sup>19</sup>.

Bu o'rinda yozuvchi peyzaj tasviri orqali inson tafakkuridagi, ruhiyatidagi ma'lum bir o'zgarishlarni, hayot va insonning dialektik birligini, uning go'zalligini shaxs tuyg' ulari orqali aks ettirishga intiladi. Jimirlab oqayotgan suvni o'ziga xos sehrini, hech anglab ulgurmagan va anglashga intilmagan holatlarni inson xakteri va ruhiyatidagi o'zgarishlar bilan bog' laydi. Shuning uchun Abdullaga qarab Gulchehra yuring, ketaylik bu yerdan, - tezroq, deb xuddi xayolda kechayotgan o'ylarini birdan dialogik nutqqa aylantiradi. Tunning sehrli holatlari, manzarasi Gulchehrani o'ziga rom etgan bo'lsa, o'zga bir dunyoga olib kirishga intilganini kuzatsak, Abdulla ham o'zini hech anglamagandek, g' alati shirin bir kayfiyatlarni ruhiyatida kechirayotgan edi.

Ular yalpiz hididan to'yib – to'yib havo simirardi. Oydin kechada, oy shulasida ming xil o'tlar orasidan yalpiz barglarini topishga intiladi. Uning uchun Gulchehraning chehrasini ochgan yalpizni topishdan katta baxt yo'qligini anglab

---

<sup>18</sup> X. Умуров. Адабиёт назаряси. –Тошкент, «Шарк», 2002. 131-бет.

<sup>19</sup> Ўлмас Умаберков. Танланган асарлар. Уч жилдлик. III жилд. Роаманлар. –Тошкент, «Шарк» 2007. 39-бет.



yetadi. Bir qo‘li bilan chimga yopishib, bir qo‘li bilan kanalning chetlarini timiskilar ekan, “topaman, albatta, topaman”, - deb o‘z xayolida uni xursand qilish yo‘llarini izlardi. Abdullani bu shashtidan o‘sha lahzalarda hech kim, hech narsa qaytara olmasligini sezgan Gulchehra mig‘ ida kulib turardi. Uning qalbini zabt etgan quvonch tuyg‘ usini yuzlaridan namayon qilib ulgurgan edi.

Voqealar rivoji xarakterlar mantig‘ iga monand tarzda shakllanib boradi. Bu holatni, burgut tasviri yoki yalpiz tasviri orqali yozuvchi mahorat bilan sujet tarkibiga singdiradi. Abdullaning bir qancha urinishlaridan so‘ng tikon tagidan bir tub yalpizni topishi, Gulchehraning yalpizni yuziga bosib, yaxshi ko‘raman, juda ham yaxshi ko‘raman, yalpiz hidi olamni beg‘ ubor qiladi, - deb bolalarcha beg‘ uborlik bilan unga o‘z tashakkurini bildiradi. Toshkentdan buvisinikiga kelgan Abdulla, oddiy qishloq qizi, ammo sodda, beg‘ ubor, tafakkur dunyosi keng, bolalik damlari birga o‘tgan Gulchehraga bo‘lgan munosabatini yozuvchi voqealar silsilasidagina namoyon qiladi. Ungacha ular o‘rtasidagi munosabatlarni sir saqlaydi, kitobxon qalbida kechayotgan tuyg‘ ularni yashira olmaydi, o‘zini hayajonlanayotganini, voqealar mantig‘ i qay darajada shakllanishiga qiziqayotganligini anglashga intiladi. Abdullaning Toshkentga borib ta‘lim olishi kerak degan savoliga, Gulchehra ayam kasal dadam yolg‘ iz qiynalib qoladi degan javoblardan so‘ng har ikkalasi uzoq o‘yga toladi.

Shu o‘rinda yozuvchi sujet voqealarini xarakterlar mantig‘ iga bog‘ laydi, xotira dialogi orqali ularning ruhiyatida kechayotgan tuyg‘ ularni aks ettiradi. ”Abdulla shunday yaxshi qizning qishloqda qolayotganini, uni endi buvisinikiga kelgandagina ko‘rishi mumkinligini o‘ylab, achinardi. O‘shanda ham ko‘ra olarmikan? Gulchehra endi katta qiz. Qishloqda esa yigitlar ko‘p. Samad boya nima dedi? ”Biz qishloqning kelajagini ko‘p o‘ylaymiz Gulchehra bilan”, dedi. Demak, Gulchehraga uning mayili bor. Tag‘ in kim biladi?... Lekin Gulchehra Toshkentda o‘qisa qanday yaxshi bo‘lardi. Har kuni u bilan uchrashardi. Har kuni sayr qilishardi. Balki ularning aloqasi o‘shanda bundan ham jiddiyroq

bo‘larmidi?”<sup>20</sup>. Xotira dialogi orqali inson tafakkuridagi evrilishlarni, o‘y – xayollarni, oruz – umidlarni tasvirlagan. Bu o‘rinlarda psixologik tasvir yetakchilik qiladi. Gulchehra ham o‘z xayollari og‘ ushida g‘ amgin, kelajagini tun qorong‘ usidek tasavvurlar hosil qildi.

Ammo shuncha yildan beri ko‘rilmagan tengdoshi bilan bo‘lgan bu uchrashuvini jiddiy tus olishini xayoliga ham keltirmagan edi. Xuddi mana shu birinchi uchrashuv uning yuragiga g‘ ulg‘ ula solib qo‘ygan, Abdullaning nimasidir birinchi ko‘rishidayoq, uni o‘ziga tortgan va kun bo‘yi tezroq kech kirishini orzuqib kutgan edi. Yozuvchi uning oz‘iga xos xarakter va ruhiyatidagi o‘zgarishlarni portret tasviri orqali jonlantiradi: ”Kechaga ham u oz‘ining eng sevimli ko‘ylagini kiydi. Avval ham shu ko‘ylakni kiyishni o‘ylab qo‘ygan edi. Lekin Abdullani ko‘rganidan keyin bu fikr qat‘iyladni, ko‘ylakni qandaydir yoqimli hayajon bilan kiyib, ancha vaqt o‘zini oynaga soldi. Buning ustiga u hech qachon bunchalik diqqat va quvonch bilan parvoz qilmagan edi. Abdulla shularni sezdimikin? Aftidan, sezdi. Kechada ko‘rishganda mahliyo bo‘lib qoldi. Mana hozir ham ko‘zlarini uzolmay turibdi”<sup>21</sup>.

Bu tasvirlarda portret va ruhiyat birligi chambarchas bog‘ liq holda o‘z ifodasini topgan. Har ikki yosh tunni bo‘lajak uchrashuv orzusida o‘tkazadi. Ikkalovi ham quvonchli tasodifdan cheksiz shod edi. Ayniqssa, Gulchehra tong otishini sabrsizlik bilan kutar ekan, ikki o‘t orasiga tushib qolganini bilardi. Lekin baribir shirin daqiqalarni tabassum va xursandlik bilan eslashdan o‘zini tiyolmasdi, so‘lib qolgan yalpizni qayta – qayta yuziga bosardi. Abdulla ham kech kirishini sabrsizlik bilan kutar, buvisi Hojar xolaning aytgan gaplari ham quloqlariga kirmas, o‘z tuyg‘ ularining jilovlay olmas, orzular og‘ ushida faqat xayol surardi.

Asardagi voqealar silsilasi murakkab bir sharoitdagi hayot lavhasini o‘z tarkibiga oladi. Shu o‘rinda qishloq bolalarining shahar tomon bilim olish maqsadida yo‘l olishi, ammo ayanchli turmushning og‘ irligidan ota-onalarning noroziligi, o‘z farzandiga bo‘lgan munosabatlarda teranroq ifodalangan: ”Zumrad

---

<sup>20</sup> Ўлмас Умаберков. Танланган асарлар. Уч жилдлик. III жилд. Роаманлар. –Тошкент, «Шарқ» 2007. 43-бет.

<sup>21</sup> Ўлмас Умаберков. Танланган асарлар. Уч жилдлик. III жилд. Роаманлар. –Тошкент, «Шарқ» 2007. 43-бет.

xola epchillik bilan o‘rnidan turib, deraza oldiga keldi-da, mushtlarini bir-biriga ura boshladi. – Bola o‘stiripman deb yuribman hali! Ha, yashshamagur! Bolamas, balo o‘stiribman! Bir balo ekansan! Na otaning gapi kor qiladi senga, na onaning! Nima qilmoqchisan o‘zing, yer yutgur?! Ukalaringni o‘ylasangchi!.. Ikki kundan beri uyda janjal, ketarmish, Toshkentda o‘qirmish, o‘qimay o‘lgur. Ne – ne umid bilan uni katta qiluvdim. Maktabni bitirib, otasiga suyanchiq bo‘lar devdim! O‘zingiz o‘ylang, aylanay, olitta bolani boqish osonmi?”<sup>22</sup>.

Onaning dialogik nutqida qalb faryodi aks etgan. Buning sababi qishloqdagi og‘ir turmush tarzi, oltita farzandni boqish otaga og‘irlik qilishini his qilgan onaning dardli alamlaridir. O‘z farzandi Qosimjonning ham o‘z orzulari, umidlari mavjud bo‘lib, odam va olamni anglash uchun bilim olishi zarurligini to‘g‘ri anglagan edi. Zumrad xolaning qalb iztiroblarini Gulchehra ko‘zda yosh bilan tinglar ekan unga rahmi kelib, nima deyishini, nima qilishini anglamas edi. Shunday lahzada Qosimjon onaning so‘zlariga e‘tibor qilsada, o‘z yolini, hayot murakkabliklarini his qilgan holda o‘sha kuni pulsiz, kiyim-boshsiz, bitta ko‘ylak – shimda Qo‘qonga jo‘nab ketadi. Do‘sti Samadga qarata Toshkentda ham sirtan yoki kechqurun o‘qiyman, kunduzi ishlayman, qaytaga bu yerda ishlaganimdan ko‘p pul topaman, lekin gap bunda emas, adabiyotchi kitob ko‘p, odam ko‘p joyda bo‘lishi kerak, - degan fikrlarni bayon qilar ekan yo‘lovchi mashinaga o‘tirib jo‘nab ketadi.

Shundan so‘ng Qosimjon, Samad, Gulchehra o‘z ruhiyatidagi o‘zgarishlar bilan birga kurashar, Zumrad xolaning dard to‘la gaplarini hayajon bilan qayta – qayta ko‘z o‘ngida jonlantirardi. Ona qalbidagi iztiroblarni farzandi Qosimjon ham to‘g‘ri anglagan, ammo hayot kurashlardan iborat bo‘lgani kabi, inosnning o‘z ruhiyati, qarshlari, olam va odam haqidagi taassurotlari mavjud bo‘lib, o‘z qalbidagi isyonni chetlab o‘tolmagan edi.

Adabiyotshunos N. Xudoyberganov inson ruhiyati, xarakteri, olam va olam haqidagi qarashlarni umumlashtirib shunday yozgan edi: ”Inson birovni yaxshi

---

<sup>22</sup> Ўлмас Умаберков. Танланган асарлар. Уч жилдлик. III жилд. Роаманлар. –Тошкент, «Шарк» 2007. 49-бет.

kor'adi, birovdan nafratlanadi, yana birovga loqayd qaraydi, tag' in kimlargadir boshqacharoq munosabatda bo'ladi. Bordi-yu, undan buning sababini so'rasangiz, unisi bunday, bunisi unday deb ta'riflab tavsiflashga kirishib ketadi... Ammo badiiy asarlardagi tarifu – tavsiflar qanchalik haqqoniy, mukammal va baniiq bo'lmasin, faqat ularning o'zi qahramonlarning jonli, ta'sirchan, to'laqonli obrazlarni gavdalantirishga ojizlik qiladi... Gap hayot haqiqatini mavjud murakkabliklari ziddiyatlari bilan ifodalab, yuraklarni to'liqlantiradigan g'oyatda jozibali, o'ta sehrli badiiy tasvir yaratishi zarur"<sup>23</sup>.

Darhaqiqat, yozuvchi O'lmas Umarbekov romanda hayot voqealarini, inson xarakteridagi o'zgarishlarni, ruhiyatdagi iztirobu quvonchlarni haqqoniy yoritib bera olganligi uchun ham, bu roman o'z badiiyligini, qiymatini, ta'sirchanligini, ya'ni kitobxon qalbini bugunga qadar larzaga solmoqda.

---

<sup>23</sup> Н. Худойбергпнов. Ишонч. –Тошкент. Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. 66-бет.

### III BOB

## “FOTIMA VA ZUHRA” ROMANIDA

### MUHIT VA XARAKTER

#### 1-fasl. Asardagi obrazlar tizimi.

“Fotima va Zuhra” romani detektiv romanlar sirasiga kirib, unda bir jinoyat ortidan yana bir jinoyatni qanday kelishi, bu jinoyatlar zanjiri o‘zaro qanday bog‘langanligi tasvirlanadi. Romanda turli xarakterdagi, turli toifadagi obrazlar o‘rin olgan. Bu qahramonlarning ba‘zilari ustidan nafs o‘z hukmini o‘tkizgan, bu yo‘lda inson hayoti, inson or-nomusini-da, sariq chaqaga olmaydigan shaxslar bo‘lsa, ba‘zilari sof vijdonligi, fidoiyligi, jonkuyarligi bilan sizning qalbingizdan o‘rin oladi. Hayotning naqadar beshafqat, taqdirning naqadar achchiq ko‘chalari borligini va eng achinarlisi bu ko‘chalarni yovuz kimsalarning o‘zi qurayotganligiga, odam atalmish xudoning bir mo‘jizasi insoniyatning boshiga nene kunlarni solishi mumkinligiga guvoh bo‘lasiz. Bunday kimsalar esa inson nomiga ketkazib bo‘lmas dog‘ tushirayotganlarini hatto anglamaydilar. Ular uchun mehr, oqibat, adolat, uyat, or kabi hislar begona. Vaholanki, ularning ham o‘sha o‘zlari barbod va parokanda qilgan oilalar kabi oilasi bor, farzandlari bor, qizlari bor...“Zuhraga ayol ham, bolalar ham yoqdi. Nahotki, shu odamlar To‘xta qiyshiqqa aloqador bo‘lishsa? Nahotki shu farishtadek odamlarni aldab, uyga kelmay, birovlariga zo‘ravonlik qilib, qon to‘kib yashashni u yaramas hayot deb bilsa! ”.<sup>24</sup>

Asarda mana shunday subutsiz, inson qiyofasidagi shaytonlar timsolini qishloqqa o‘z mulkiday qaraydigan, o‘zini bu xo‘jalik odamlarining hayotiga-da, rais hisoblaydigan Teshaboy Sulstonov, dunyoga kelib, raisdan o‘zgasini odam deb bilmaydigan, uning gaplarini o‘zi uchun qonun hisoblovchi, buyruqlarnigina bajaradigan, go‘yo hissiz robot kabi hayot kechirayotgan Odamboy, raisning boshqa bir kirdikorlari, ya‘ni o‘z nafsining quli bo‘lib, qing‘ir yo‘l bilan umr kechiruvchi, yengil hayotga o‘rganib qolgan Zokir, To‘xtamurod qiyshiq, Isroil va

---

<sup>24</sup> Umarbekov O‘. Fotima va Zuhra. Roman. –Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2005-yil, 180-bet

yosh singlisining umrini xazon bo'lishiga ma'lum ma'noda sababchi bo'lgan Hamidulla ham shular qatorida edi. Eng fojeali tomoni kasblari adolatni yuzaga chiqarish, insonlarni himoya qilish bo'lgan huquq muhofazasida ishlovchi ayrim shaxslar ham bu jinoiy to'daning sheriklari ekanligidir. Bu shaxslar ham o'zlarinin eng oliy burchlarini unutgan holda, nafslariga erk beradilar. Usmonov, Siddiqov, Jamolov, Tursunov kabilar o'z vazifalarini unutgan "huquqni muhofaza qiluvchi" xodimlardir. Ularning ko'pchiligi "yuqori mansab" egalari ekanligi, jamiyatni ichdan chiritayotganlar ham unga tirgak bo'lib turgan ustunlar hisoblanishi kishini larzaga soladi. Haqiqatan ham, siz suyangan tog' lar ustingizga qulay deb tursa...

Giyohvandlik balosi ko'plab insonlarning yostig' ini quritayotgan, ayniqsa, hali o'n gulidan bir guli ochilmagan yoshlarni umrini xazon qilayotgan, ne-ne oilalarni parkonda qilib, qanchadan-qancha insonlarni jinoyat olamiga olib kirib, qo'lini qonga botirayotgan holatlarni ko'rib-bilib, uning zamirini anglab yetgan bu xodimlarning aynan o'zlari bu holatlarni oldini olish o'rniga, aksincha sharoit yaratib berishi, jinoyatga sherikchilik qilishlari fojeni kuchaytiradi. To'g' ri, ular keyinchalik bo'lsa-da, o'z qilmishlariga yarasha jzolarini olishadi, lekin ular keltirgan falokatlar tuzatib bo'lmasdir.

Hayot faqat qora ranglardan iborat bo'lmagani kabi hayot ham faqat yomon odamlardan iborat emas. Asarda yuqorida tasvirlangan yovuz kimsalarga qarshi kurashuvchi, adolat o'rnatish, tinchlikni saqlash, insonlar hayotini, xotirjamligini ta'minlash o'zining asosiy vazifasi edb biluvchi insonlar ham tasvirlangan. Mayor Aliyev, Ismoilov kabi huquq posbonlari, shuningdek, oshkora kurashga qurbilari yetmasa-da, haqiatni qaror toptirish uchun harakat qilishgan va bu yaxshiliklari uchun, hatto qurbonga aylangan Aliqul otboqar, Tolib polvon kabi obrazlar shular jumlasidandir. Asardagi eng yorqin, qalbingizni o'zining jasurligi, qo'rqmasligi, oriyatliligi, jur'atliligi bilan qalbingizni zabt eta oladigan qahramon – Zuhradir. Zuhradagi matonat, kuchli iroda, shijoat, kurashuvchanlik kabi fazilatlar kitobxonni hayratga soladi. Zero, 17 yoshida o'zining yarimi hisoblangan jonajon opasi Fotimadan, keyin birin-ketin otasidan, akasidan ayrilgan, shundoq ham ko'ngli yarim bo'lib onasiz o'sgan Zuhra uchun bu juda og'ir zarba edi.

Guruch kurmaksiz bo'lmaydi deganlaridek, huquqni muhofaza qiluvchi xodimlar orasida xoinlari bo'lgani bilan birga, ularning haqiqiy jonkuyar, adolatparvar posbonlari ko'pchilikni tashkil etar edi.

Shunday obrazlardan biri Qodir Aliyev obrazidir. Qodir Aliyev huquqni muhofaza qiluvchi xodim, ya'ni militsiya mayoridir. Aliyev o'zining ishiga nisbatan juda katta mas'uliyat bilan yondashadi, asosiy vazifasi adolat o'rnatish ekanligini to'g'ri anglaydi va bu yo'lda o'gishmasdan harakat qiladi. Romanning asosiy voqealari bo'lib o'tadigan, uyushgan jinoiy guruh faoliyat yurgizayotgan Yo'g' ontepa qishlog'ida yuz berayotgan sirli qotilliklarni tekshirish ham unga yuklanadi. Aliyevga xos yana bir fazilat bor ediki, bu uning kasbida asosiy o'rin tutardi. Ya'ni Aliyev o'zi boshlagan ishni oxirigacha yetkazmasdan qo'ymas, yo'lida har qanday to'siq bo'lsa, ham yengib o'tishga harakat qilardi. Hatto, uni oilasiga, farzandlariga, o'ziga-da tahdid qilishsa-da, u bunday po'pisalardan qo'rqmas, baribir dadil xarakatlanar edi. "Qandaydir odamlar mening uyimga telefon qilishib, ko'knori bo'yicha olib borayotgan ishimizni to'xtatishni, Yo'g' ontepaga boshqa qadam bosmaslikni buyurishibdi. Agar quloq solinmasa, qizim yo o'g' limga bir balo bo'lishi mumkin emish<sup>25</sup>". Bu kabi tahdidlar Aliyevlarning ishida ko'p uchraydi. Lekin Aliyevga xos mardlik, o'z ishiga sadoqat bularni pisand qilmaydi. Undagi vijdonlilik, burch, mas'uliyatlilik kabi fazilatlar ishidagi qiyinchiliklarni yengishida yordam beradi. Asar detektiv roman bo'lganligi bois qahramonlarning o'y-mushohadalari, iztiroblari ichki monolog tarzida ko'p ham nomoyon bo'lavermaydi. Biz buni ko'proq ularning harakati, holatlari, tutgan yo'llari orqali ko'rishimiz mumkin. Mayor Aliyevda ham xuddi shunday. Jinoyatchilar to'dasi unga haq qanday yo'l bilan tazyiq o'tkazishmoqchi, uning yonidagi odamlarni yo'q qilishga harakat qilmoqchi bo'lishadi. Lekin mayor bulardan tushkunlikka tushmaydi. Hatto, uni bu yo'ldan olib tashlash uchun "yuqoridagilarga" arz qilib, ishdan bo'shatishadi. Ammo Aliyev bundan o'kinmaydi, Zuhraga bergan va'dasini unutmagan holda, o'zi boshlagan ishni erkin

---

<sup>25</sup> Umarbekov O'. Fotima va Zuhra. Roman. –Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2005-yil, 67-bet

tarzda, o'z vijdoni oldidagi burchi hisoblab, davom ettiradi. "U oxirigacha kurashadi. Zuhraning har qanday erkakni yer bilan bitta qiladigan achchiq qarashlarini u unutilmaydi. Hech kim oldida bo'lmasa ham, sh qizcha oldida o'zining, faqat o'zining emas, butun militsiyaning nimaga qodirligini u ko'rsatishi kerak".<sup>26</sup> Aliyev haqiqiy matonatli inson ham. Boshqalar qatori uning uchun ham oilasi, farzandlari aziz va ardoqli, lekin aziyat chekkan insonlarning yarasiga malham qo'yishi, jamiyatdagi bunday chirkinliklarni yo'qotishi ham kerak. Axir, hamma ham Siddiqov, Usmonovlar kabi o'zini olib qochib, jonini huzurini o'ylab ish tutsa, hech kim bu dunyoda adolat borligiga, haqiqat qachondir g'alaba qozonishiga, qing'irlik va egrilik bilan hayot kechirishning oqibati tubsiz jarlik ekanligiga, eng achinarlisi, o'zaro ishonch bo'lishi kerakligiga ishonishmay qo'yadi. Aynan man shularni to'g'ri anglagan Aliyev hech bir narsadan hayiqmay, ilk bora o'g'liga shikast yetkazishmoqchi bo'lishganda ham taslim bo'lmaydi. Hatto, rafiqasini o'g'irlab ketib, po'pisa qilishganda ham, sarosimaga tushmaydi, lekin ayni shu lahzalarda odamlarning bir-biriga nisbatan qanchalar loqayd, e'tiborsizligini his etadi. Hatto, ulardan norizo bo'lgandek ham bo'ladi. "Aliyev negadir qozon va tandir oldida to'dalashib turgan shu odamlardan xafa bo'ldi. Uning xotinini qandaydir yaramaslar mashinaga bosib olib kelishsa-da, bog'da hech kim bunga e'tibor bermasa?! Aliyev shu xayoli bilan odamlar haqida noto'g'ri o'ylayotganini bilsa ham, o'zini alam va jahldan tiyolmasdi"<sup>27</sup>. Muallif Aliyevning bu tarzdagi ruhiy holatini tasvirlar ekan, bu davrning eng ayanchli holatlaridan birini ko'rsatib o'tmoqchi bo'ladi, go'yo. Zero, odamlardagi mana shu loqaydlik, ushbu beparvolik shunday to'dalarning yaratilishiga zamin yaratmadi?! Sen menga indama, men senga indamayman qabilidagi ish tutishlar atrofimizdagi notinchlikni keltirib chiqarmadimi demoqchi, bo'ladi muallif. "Bizda qachon o'zi odam-odamni ayaydigan, ko'nglini ko'tarib, qurbi yetganicha hojatini chiqaradigan zamon bo'lgan edi? Bo'lgan emas. Minbarda bo'lgan, chiroyli ma'ruzalarda bo'lgan, lekin hayotda boyning oshig'i olcha, kambag'alning holi voy bo'lib

---

<sup>26</sup> Umarbekov O'. Fotima va Zuhra. Roman. –Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2005-yil, 116-bet

<sup>27</sup> Umarbekov O'. Fotima va Zuhra. Roman. –Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2005-yil, 198-bet



kelavergan. Aliyev bu gaplarni ovoz chiqarib aytolmaydi. Aytsa bo'ladi, hech kim uni urishmaydi, qamamaydi. Lekin eng yuqori jazoga hukm qilinadi: e'tiborsizlikka, ishsizlikka, yolg' zilikka! Buni u yaxshi biladi".<sup>28</sup> Aliyev mazkur daqiqalarda ham chuqur o'y-mulohaza va aql bilan ish ko'radi, qaroridan qaytmaydi. Undagi bu qat'iyatlilik, metin iroda, shijoat o'z samarasini bermasadan qolmadi, albatta. Mayorning sabr bilan ish tutganligi, uni yana o'z o'rniga qaytarib olib keldi. Chekkan mashaqqatlari, qilgan mehnatlari evaziga aybdorlarni jazoga tortishga muvaffaq bo'ldi, ya'ni o'z burchini to'la-to'kis bajardi. U, nafaqat, huquqni muhofaza qiluvchi xodim sifatidagi, balki inson sifatidagi burchini ham bajargandi. Zuhrani yolg' iz qo'ymay, o'z bag' riga olishi insoniylikning oliyjanob ko'rinishidir.

Teshaboy Sulstonov "Shifokor" kolxozining raisi, Yo'g' ontepaning sal kam egasi hisoblanardi. Qishloqda raisni hamma hurmat qilar, ota qatorida ko'rishardi. Lekin bu hurmatlarning asl zamirida qo'rquv yotardi. Zero, raisning sodiq "iti"day bo'lib qolgan Odamboy aytganidek, "Uning gapiga kolxozda qo'shilmaydigan odam yo'q. bori ham o'z fikrini aytgani undan cho'chiydi. Rais bunaqa odamlarni xush ko'rmaydi. Yuziga solmaydi, majlislarda tanqid qilmaydi. Ammo har tomonlama shu shu odam uchun hayot jahannamning o'zi bo'ladi-qo'yadi, qishloqdan, butun Durkentdan bosh olib ketadi"<sup>29</sup>. To'g' ri, raisda yaxshi fazilatlar ham bor edi. U o'z nomiga monand qishloqdagi ko'pgina insonlarga otalik qo'lini cho'zar edi. Qishloqdagi yigit-qizlarning bir qanchasi uning muruvati bilan o'qishga kirishgan, ahvoli og' ir oilalarni holidan xabar olib turadi. Lekin bularning barchasi ham kerak bo'lib qolganda, raisning bir kuniga yaraydi yoxud raisga hurmat olib keladi, rais bu bilan hech narsa yo'qotmaydi, zero uni qishloqdan olayotgan fodasi bu ehtiromlarning oldida dengizdan tomchi. "Oddiy xalq hamon uni yaxshi ko'radi. Chunki, biron ma'raka qolmaydi. Yordamini ayamaydi. Xullas, kambag' alning boshini silab ishlatishni biladi. Lekin bekorga emas. Har bitta qilgan yaxshilikni o'n hissa qilib qaytarib oladi. Qanchasini o'zi

---

<sup>28</sup> Umarbekov O'. Fotima va Zuhra. Roman. –Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2005-yil, 85-bet

<sup>29</sup> Umarbekov O'. Fotima va Zuhra. Roman. –Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2005-yil, 39-bet

oladi – buni hech kim bilmaydi.”<sup>30</sup> Shu boisdanmi, rais qishloqdagi odamlarga ham o‘z mulkiday munosabatda bo‘ladi; xohlasa taqdirlaydi, xohlasa, tahqirlaydi. Uning uchun inson qadridan ko‘ra pul, boylik, o‘zining istaklari ustun turadi. Masalan, birgina uning otini buqa suzib, yara qilishi bilan bog‘liq voqeani olaylik: “Telefon jiringladi.

Sen o‘zi nima qilib yuribsan? – do‘q qildi rais. – Mudir degan hammadan oldin molxonaga borib, xabar olmaydimi! Joningga tegdimi mudirlik? Unda mayli, bo‘shatib qo‘y. Ahmoq! Mabodo o‘lib qolsa, yarim millionni o‘zing yoningdan to‘laysan. Men o‘yinchoqqa olib kelib qo‘yibmanmi uni? Aliqul qayoqda? Markazda? To‘yda? Haromi! Yuz qamchi, eshitdingmi? O‘zing qamchilaysan. Qarab turaman. Bo‘ldi. U nas bosganni ishtonini yechib urasan. ...Hey! Tushunasanmi, nima bo‘lganini? Yarim baravar tushib ketdi endi bahosi...”<sup>31</sup> Rais hamma narsani pulga chaqib ish tutardi. Unga insonning keying tqadirini qizig‘i yo‘q, odamnin qadri yo‘q hisob. Rais ishni ko‘zini biladigan, mug‘ ombir, uddaburon, ishbilarmon ham edi. Buni “yuqoridagilar”dan toritb, atrofidagi mansabdorlarni ham “sotib olgani”dan, o‘ziniki qilib olganidan bilsa bo‘lar edi.

Asarda tasvirlangan voqealarning, mudhishliklaraning, barchasi mazkur “oliyjanob” rais atrofida sodir bo‘ladi. Teshaboy Sulstonov “Shifokor” kolxozi niqobi ostida ko‘knori yetishtirish va uni sotish ishlari bilan shug‘ullanadi. Rais o‘z ishiga pishiq odam edi. O‘z kolxozida noqoqnuniy ravishda ko‘knori yetishtirilgan dala haqida vazirlikka xabar berib, “qonuniy” ravishda yana o‘z mulki qaytadan ega bo‘lmoqchi bo‘ladi. Zero, chaquv orqali ma‘lumot berilgan o‘sha ko‘knori dalalari ham Teshaboy Sulstonovga tegishli bo‘lib, u bu haqida militsiyaga xabar berib, keyin ularni o‘zi topib, yana “Shifokor” kolxoziga musodara qilish orqali bir o‘q bilan ikki quyonni urmoqchi bo‘ladi. Ya’ni xatardan holi bo‘lgan “[mol]”i o‘ziga qolar, ham militsiyaga yordam bergani uchun, markazning ishonchini, cheksiz hurmatini qozonardi. Lekin tekshiruvga mayor Aliyevnin aralashuvi uning xayollarini to‘zg‘itib yuboradi. Teshaboy Sulstonov

---

<sup>30</sup> Umarbekov O‘. Fotima va Zuhra. Roman. –Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2005-yil, 76-bet

<sup>31</sup> Umarbekov O‘. Fotima va Zuhra. Roman. –Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2005-yil, 38-bet

bunday qabih ish bilan shug'ullanar ekan, atrofiga jinoiy to'dani ham birlashtirgan edi. Tuman huquqni muhofaza qiluvchi organi ham undan beruxsat bir ishga qo'l urisha olishmasdi. Rais ko'pgina qing'ir ishlarini mana shu odamlari qo'li bilan bajarardi. Rais o'z istaklari yo'lida boshqalarning oilasini-da buzib, xayotini vayron qilishga-da, qodir inson edi. Shohida uning mana shunday istaklari qurboni bo'ldi. "Otaning niyatlari boshqacha edi. Uni ovchi burgutga aylantirib qo'ymoqchi edi. O'ljani ko'rsatadi, Shohida borib olib keladi. Ammo u bu o'yinni qabul qilmadi. Odamboy negadir unga achinmadi. Ingichka ipak arqon bilan sharsharaning panasida uning bo'ynini qisar ekan, bitta haromdan otani halos qilgandek his qildi o'zini".<sup>32</sup> Haqiqatan ham, rais Shohidaning hayotini buzish bilan cheklanmay, uni o'zining boshqa iflos ishlariga ham tortmoqch bo'ladi, u ko'nmagacha, yo'ldan olib tashlaydi. Raisning mana shunday oddiygina qilib ishlatadigan so'zi "yo'qot" hisoblanardi. U odamlarning hayotini mana shunday hal qilardi. Uning qanoti ostidan panohtopgan shotirlari ham raisning soyasida har xil noma'qulchiliklarga qo'l urishardi. Begunoh Fotima ana shunday qurbonlardan edi... Fotima oriyatli, or-nomusli, pok qalbli qiz bo'lgani uchun ham bunday isnodga chiday olmaydi, natijada o'zini osadi. Fojeaning eng dahshatli tomoni o'z akasi Hamidulla uni qimorga tikib, yutqazib qo'yganligi edi. Bezorilar Fotimani bunday qilishini kutishmagandi, chunki Fotima birinchi jabirdiyda emas edi... Teshaboy Sultonov ularning bu qilmishlarini bilsa-da, chora ko'rmas, ularni qaytarmasdi. Chunki uning uchun o'z ishi hamma narsadan muhimroq edi. "sultonov ulardan qanchalik jirkanmasin, ularning qanchalik iflos, past ekanliklarini bilmasin, ularsiz ishlashi qiyinligini bilardi. Ular hech narsad gapni ikkita qilishmas edi. Odamboy singari ular ham qullari edi... Bulardan voz kechib yuborsa og'ir bo'ladi. To odam topib qo'lga o'rgatguncha ancha vaqt o'tadi...".<sup>33</sup> Lekin ularning bir jinoyati ortidan boshqasini yetaklab keladi. Fotimaning qoldirgan xatini o'qib, g'azab otiga mingan ota va aka gunohkorlardan o'ch olmoqchi bo'lishadi. "O'shandan keyin qimor o'ynadimi? Singlisini tikdimi, a?!

---

<sup>32</sup> Umarbekov O'. Fotima va Zuhra. Roman. –Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2005-yil, 239-bet

<sup>33</sup> Umarbekov O'. Fotima va Zuhra. Roman. –Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2005-yil, 135-bet

hayvondan battar holga tushganini ham bilmasmidi? Chindan yutqazdimi yo ular g' irrom o'yin qildimi? Xo'p, mastlikda tikkan bo'lsa, tikkandir. O'ziga kelguncha kutishmaydimi? O'rniga topib ber , deyishmaydimi? Shularni o'ylab, Hamidulla tishlarini g' ijirlatdi. "Hunasalar, men senlarga ko'rsatib qo'yaman hali!".<sup>34</sup> Rais Hamidullani ham Odamboy orqali xuddi Shohida kabi yo'q qiladi. Uning shotirlari esa xuddi shu tarzda Abdulla akani, ya'ni Fotimaning otasini boshiga yetishadi. "G' amxo'r ota" qo'ldan kelgancha, ularning aybini yopishga harakat qiladi; jinoyatchilarni yashiradi. Teshaboy Sultonov shu tariqa o'zining boshchiligida bir oilani parokanda qilib, uch insonning uvoliga qoladi. Lekin faqatgina bular emas edi. U o'z manfaati yo'lida insoniylikni-da, unutilgan shaxs edi. Raisning qing' ir ishlaridan xabar topib, uni jazoga tortmoqchi bo'lgan Ashurali militsiya, Shohidaning fojeasidan xabardor Aliqul otboqar uning yo'ligato'g' anoq bo'lgani uchun yo'ldan "surib tashlangan" insonlar edi. Teshaboy Sultonov shunchalar yovuzlashib ketgan edi-ki, shunday og' ir va tahlikali vazuyatga tushib qolganiga qaramasadan, necha yillardan buyon uni qo'llab kelgan Usmonovni o'z qo'li bilan o'ldiradi. "Usmonov ko'p ishlarda uning hamfikri, sherigi bo'lib keldi. Nima desa shuni qildi. Lekin u o'ylaganidan ko'p so'ray boshladi. Ishtaxasi ochilib ketib, uyat-andishani unutilib qo'ydi. Sultonov uning bunchalik besh panjasini og' ziga tiqishini kutmagan edi. Bir uyaltirdi, bo'lmadi. Ikki uyaltirdi, parvo qilmadi. Qo'rqitgan edi, kuldi. Sultonovning rozi bo'lishdan boshqa chorasi qolmadi. Bugungi uning qo'rquvi, sarosimaga tushib, "ketaman"lab qolishini kutmagan edi. Ildizi baquvvat deb o'ylagan edi. Undan qutulish kerak, shekilli. Ammo qayerda? Shu yerdami?...".<sup>35</sup> Ha, Sultonov shunchalar tubanlashib borayotgan ediki, hatto o'ziga itday sadoqatli Odamboydan ham shubhalana boshlaydi: "Quldan chiqqan qozidan xudoning o'zi asarsin, deydi xalq. Bekorga shunday demagan. Lekin la'nati qanchalik sodiq bo'lmasin, bir kun undan qutulish kerak. Qulning xo'jasiga sodiqligi yangi xo'ja chiqqunicha!".<sup>36</sup> Teshaboy Sultonov o'zining mol-davlatga,

---

<sup>34</sup> Umarbekov O'. Fotima va Zuhra. Roman. –Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2005-yil, 100-bet.

<sup>35</sup> Umarbekov O'. Fotima va Zuhra. Roman. –Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2005-yil, 228-229-bet.

<sup>36</sup> Umarbekov O'. Fotima va Zuhra. Roman. –Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2005-yil, 229-bet.

boylikka o'chligi bois man shunday ahvolgacha yetib boradi. Oxir oqibatda o'z gunohlariga jazosini tortadi; o'zini-o'zi fojeali tarzda halok etadi. Muallif qahramon fojeasini ko'rsatar ekan, uning ismiga-da, ma'lum bir ramziylik singdrishga harakat qiladi, go'yo. Bizningcha, Teshaboy Sultonov nomi ostida bu raisning asl basharasi yashirinib yotibdi.

Odamboy bu dunyoda azizroq, ulug' roq zot yo'q edi. U raisning hech bir so'zidan chiqmas, qanday ish buyurmasin o'ylab o'tirmasdan bajo keltirar edi. "Odamboyning bilishicha, kambag' alga qayishadigan, hammaga –katta-kichikka ham, boy va yo'qsilga ham baravar qaraydigan ikkita odam o'tgan bu dunyoda. Bittasi Horun ar-Rashid, xalifa. Ikkinchisi Hotamtoy, sayyoh. Onasi Ruxsorbibi, unga kitoblardan o'qib bergan shu odamlarni. O'shalardan keyin hozirgi Hotamtoy, Horun ar-Rashid – Teshaboy Sultonov, Ota. Odamboy shunday hisoblaydi".<sup>37</sup> Odamboy uchun raisning oilasi o'z oilasiday bo'lib qolgan edi. "Ularning hammasi ota-onalari kabi, Odamboy uni o'z oila a'zolaridek ko'rishadi. Odamboy buni biladi, shuning uchun "ota"sidan minnatdor, uning sodiq xizmatkori".<sup>38</sup> Avval, u raisning xotini Saltanat opaga xizmat qilib yurgan bo'lsa, keyin rais uni o'z yoniga oldi. Shu tariqa u raisning eng ishonchli odamiga aylandi. Odamboyning o'zi aytganidek, "og' zida yettita qulfi bor" yigit edi. Odamboy o'z ismiga munosib, faqatgina "odam" edi, xolos, unda insoniylik xislatlaridan kam topilardi. Uni raisning hissiz quli desak to'g' riroq bo'lardi. Zero, kimnidir yo'qotish kerak bo'lsa, bu ishni Odamboy bajarar va raisdan hech qachon sababini so'rab o'tirmas edi. Uning uchun rais qanday ish qilsa ham, to'g' ri yo'l shu deb hisoblar, uningcha, Ota xato qiladigan insonlardan emas edi. Lekin u raisning o'z qo'li bilan oshnasini o'ldirganini ko'rib, xizmati bitganligini angladi.

“ - Xizmat bitdi, aka.

Shu gap og' zidan chiqib ketganini o'zi sezmay qoldi. Chindan ham uning bu yerda otasiga oxirgi marta xizmat qilishi edi. Dilining bir chetida u shuni sezdi. Otasining nima qilayotganini ko'rmaganda, hatto, shu ishni unga topshirganda,

---

<sup>37</sup> Umarbekov O'. Fotima va Zuhra. Roman. –Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2005-yil, 39-bet

<sup>38</sup> Umarbekov O'. Fotima va Zuhra. Roman. –Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2005-yil, 41-bet

bunday o‘ylamasdi. Hali ko‘p kerak bo‘lishini, o‘zini otaga nihoyatda zarurligini his qilib yuraverardi. Ammo otasi bugun uni xizmatdan chetlatdi. Unga zarurati qolmaganini ko‘rsatdi. Demak, uning ham ahvoli tang. Shoshilyapti. Shundaymikan? Yoki faqat uning keragi bo‘lmay qoldimikan? Nima bo‘lsa ham, Odamboy yolg‘iz qolayotganidan qo‘rqib ketdi”.<sup>39</sup> Uzoq yillardan beri Otaga e‘tiqod qilib kelayotgan Odamboy raisning qanchalik sovuqqonlik bilan, “yuzidagi biron tuki qimirlamay” odam o‘ldirganini ko‘rib, dahshatga tushadi. Buni sezgan rais uni uyiga jo‘natib yuborganda, so‘nggi xulosaga keladi: “Ota uni uyiga jo‘natdi. Qilayotgan ovqati chala qolib ketdi. Demak, u raisga kerak emas edi. Bugun bo‘lmasa, ertaga, yo indinga undan ham qutulishi mumkin.”<sup>40</sup>

Barchasini anglab yetgan Odamboy Zuhraga yordam berish orqali aybini yuvmoqchi bo‘ladi, go‘yo va g‘or haqidagi barcha haqiqatni aytib beradi...

Fotima - ijtimoiy muhitning qurboni, akasining xatosi jabirdiydasidir. U insoniylikdan yiroq, vijdon hissini tuymaydigan kimsalar tufayli halok bo‘ladi. Fotima ham bezorilarning o‘zlari ta‘kidlagandek, “boshqa qizlar kabi indamay ketishi” mumkin edi, lekin uning pok yuragi, toza qalbi bilan bu dunyoga ortiq sig‘masligini his etadi. Fotimaning ham bir dunyo orzulari bor edi: “Qani tonggi orzular? Sizni o‘ylagan, yarim kun buru o‘zini baxtli hisoblagan qizni ko‘zi yomon ekan. O‘z ko‘zi o‘ziga tegdi. Endi siz yo‘qsiz, osmonda, falakda charaqlagan yulduzlardek charaqlab, yurakni yoritib, to‘lqinlantirib turgan edingiz. Endi so‘ndingiz orzular. Endi siz yo‘qsiz. Sizni o‘ylagan qiz ham endi yo‘q. Jasadigina hammadan qochib, hammadan uyalib uyi tomon ketyapti...”.<sup>41</sup> Fotimaning bu yo‘sinda fojeali halok bo‘lishi Zuhraning qalbiga cheksiz g‘am olib keladi. Fotima va Zuhra faqatgina egizak bo‘lganlari uchungina emas, balki onalaridan erta judo bo‘lganlari bois ham bir-biriga suyanib qolishgandi. Buning usiga Fotimaning sirli tarzda o‘zini osishi, Zuhraning yuragida shubha uyg‘otdi. Zero, ertalabgina hamma narsadan xursand, baxtiyor, buning ustiga maktabni kumush medalga

---

<sup>39</sup> Umarbekov O‘. Fotima va Zuhra. Roman. –Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2005-yil, 235-bet

<sup>40</sup> Umarbekov O‘. Fotima va Zuhra. Roman. –Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2005-yil, 237-bet

<sup>41</sup> Umarbekov O‘. Fotima va Zuhra. Roman. –Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2005-yil, 61-bet

bitirayotgan qiz nima sababdan kechga borib, bu dunyoda yashagisi kelmay qoldi, nima sababdan uning kuylaklari bu ahvolda!? Mana shunday savollar Zuhraga tinchlik bermasdi. O'pasini kimdir shunday qilishiga majbur etgan. U haqiqatni aniqlash maqsadida qabrga o'pasini bir kungina keyin bo'lsa-da, qo'yishlarini iltimos qilib boshurmagan joyi qolmaydi. Lekin hech kim unga quloq solishni istamaydi. Mana shular sabab bo'lib, Zuhrani hech kimga ishonchi qolmaydi. Buni biz Aliyev bilan ilk marta uchrashib, qurgan suhbatlaridan ham bilishimiz mumkin: "Nega militsiya, xalq militsiyasi menga quloq solmadi, Toshkentga olib borib tekshirtiraylik, desam, parvo qilishmadi? Fotimani darrov g'ira-shirada go'rga olib borib tiqib kelish kimlarga kerak bo'lib qoldi? Fotimani o'ldirishgan. U faqat bo'yniga sirtmoq slogan, xolos. Qotillari yuribdi. Kim biladi, balki janozaga kelib ketishgandir. Yettisi, yigirmasiga ham kelishar? Meni kechiring, siz ham tekshirib, ularni topa olishingizga ishonmayman".<sup>42</sup> Zuhrani qay'guga slogan yana bir narsa Fotima qoldirga xat edi. Xatdagi gaplar to'g'ri chiqsa, Zuhra akasidan-da, o'zi o'ch olishga intiladi. Zuhra tabiatan o'yinqaroq, mas'uliyatni his etmaydigan, sho'x, qahramonlardan biri aytganidek. "jibilajibon", o'qishga hafsalasi yo'q qiz edi. Lekin taqdirning unga bergan bu zarbasi uning ko'zlarini ochdi, hayotga boshqacha qarash lozimligini ko'rsatdi. U endi, o'yinqaroqlikligi, bolalikcha qiliqlari Fotima bilan birga ko'milganini angladi. O'zi anglamagan holda, Zuhra mana kunlar ichida ancha ulg'aygan edi. Endi 17yoshli Zuhra o'rmini boshqasi egallagan. Bu g'am uni sindirmadi, balki yanada dadilroq qizga aylantirdi. Keyinroq esa o'pasining qasdini olish uchun ketgan otasining o'ligi qaytib kelishi, akasining esa bedarak ketishi Zuhraning qaddini bukolmadi, aksincha endi u so'nngi xulosaga kelgan edi. "Aytganingni qilaman. Agar men hozir orqalaringdan ketsam, seni zo'rlaganlar, adamning qotillari chapak chalishadi. Sizlarning o'chingizni olaman. Ko'rasan, ular hali ko'p pushaymon yeydi".<sup>43</sup>

---

<sup>42</sup> Umarbekov O'. Fotima va Zuhra. Roman. –Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2005-yil, 84-bet

<sup>43</sup> Umarbekov O'. Fotima va Zuhra. Roman. –Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2005-yil, 141-bet.

Aliyevning va'da berganiga, "bu uydan boshqa o'lik chiqmaydi" deganiga qaramasdan otasining o'lishi, Fotimaning, adasining qotillarini haligacha topilmagani, keyinchalik esa Aliyevning ishdan ketkazilganini eshitib, unga hech kim yordam qo'lini cho'zolmasligini angladi, akasini ishi bo'yicha shug'ullanayotgan militsiya xodimi bilan bo'lgan suhbatidan keyin esa uni militsiyaga bo'lgan ishonchsizligini yanada orttirdi. "Akangizning ishi ikkinchi men tekshirayotgan ish edi. Lekin... yo men yoqmay qoldim bu yerdagilarga, yo akangizning ishini ochishni istashmayapti. Ikkita-uchta yomon xat oldim... Mashinamni urib ketishdi... Nima qilganim ma'qul, hali aniq bilmayman..."<sup>44</sup>.

Zuhra nimalar bo'layotganini anglab yetgandi. Kimlardir haqiqatni yuzaga chiqishini xohlashmayapti. Shunday paytda Zuhraning o'zi jangga kirishdi, dushmanlardan o'zi qasos olishga qaror qildi. Zuhradagi bu o'zgarish uni juda jasur, hech narsadan tap tortmaydigan, irodali qizga aylantirgandi. Endi u o'zi aytgandek, "bevaqt, fojeali halok bo'lgan otasi uchun ham qiz, ham o'g' il. Fotima uchun ham singil, ham uka"ga aylangan edi. Uning birinchi qilgan ishi o'sha yaramaslardan biri Zokirning uyini yoqishi bo'ldi. Zuhra uchun kurash boshlangandi. Hali yosh, buning ustiga qiz bola bo'lishiga qaramasdan, uning o'zi bu nusxalarni qidirib topishga kirishdi. Undagi paydo bo'lgan kuch, jur'at va jasorat uning niyatlarini amalga oshirdi. Zuhra qiyinchilik va to'siqlarni yengib o'tib ulardan qasosini oldi. Shuning bilan birga raisning bog' idan akasini topdi...

Zuhraning boshiga tushgan bu judoliklar uning ruhini sindirolmadi. Faqatgina endi u yolg' iz, bu dunyoda hech kimi qolmagan edi...

Romanda yana ko'plab, obrazlar o'rin olgan bo'lib, ularning xarakteri, qarashlari, fikrlashlari-da, turlicha shaxslardir. Ularning barchasi muallif tasvirlagan ijtimoiy muhit, tuzum, jamiyat kamchiliklari, insonlar o'rtasidagi darz ketayotgan o'zaro munosabatlar tasvirini kitobxonga yanada aniqroq ko'rsatib berishga xizmat qilgan. Umuman olganda, O'lmas Umarbekov qahramonlarining jonli qiyofalarni yaratish orqali o'zining ko'zlagan maqsadiga erisha olgan.

---

<sup>44</sup> Ў. Умарбеков. Фотима ва Зухра. Роман. –Тошкент, «Янги аср авлоди», 2005. 174-бет.



Bu kabi shaxslar bizning oramizda ham mavjud, ayni damda biz bilan harakat qilayotgan, nafas olayotgan bo'lishi mumkin. Faqatgina bir narsa asardagi qahramonlarning aynan o'zini hayotda uchratolmaymiz, zero ular muallif g'oyasining mahsuli ham bo'lishi mumkin. Bu obrazlarning har biri asarda o'z vazifasi, o'z o'rniga ega bo'lib, ularning har biriga ma'lum badiiy maqsad yuklangan. Jumladan, muallif Aliyev timsolida haqiqatning oxir-oqibat qaror toopishini, adolatning o'rnatilishi muqarrar ekanligini ko'rsatmoqchi bo'lsa, Teshaboy Sultonov obrazida esa hech bir yomonlikning, hech bir qilmishning javobsiz qolmasligini, har bir inson qachondir qilgan gunohlari uchun javob berishi tayin ekanligini ta'kidlamoqchi bo'ladi. Odamboy xarakterida esa "zamonamizning manqurtlari" gavdalanadi. Zero, Odamboyning raisga bo'lgan munosabati, ko'rsatmalarini qulog' ini qimirlatmay bajarishi, "Ota"siga so'zsiz muteligi aqli joyida manqurtning namunasidir.

Hamidulla obrazida nobop insonning o'z oilasiga keltirgan fojeasi, subutsiz akaning kasofati aks ettirilsa, Zuhra obrazida oila, ota va farzand, opa va singil, aka va singil o'rtasida mavjud bo'lgan ko'rinmas rishtalar kuchi namoyon bo'ladi. Darhaqiqat, oilaning o'zi bir butun qo'rg' on hisoblangani bilan, bu qo'rg' onning mustahkamligini saqlovchi ustunlari ham mavjud. Bu ustunlarning hamjihatligi, jipsligidan esa qo'rg' onga zarar ham yetmaydi. Aynan mana shunday jipslikni ushlab turuvchi rishtalar in'ikosi ushbu asarda o'z aksini topgan. Zuhra o'z fikri, qarori bilan harakat qilgani holda, har bir farzandning ooila, ularning a'zolari oldida o'z burchi borligini namoyon etadi. Qiz bola va buning ustiga yosh bo'lishiga qaramasdan, opasining oldidagi singillik, otasining oldidagi farzandlik burchini yaxshi anglaydi. Shuningdek, uning harakatlarida, qilgan ishlarida jigarlarning o'rtasida ko'rinmas, bir tog' day og' ir rishtaning mavjudligiga guvoh bo'lasiz. Zuhra obrazida yashiringan yana bir haqiqat shunda ediki, kishi boshiga tushgan har qanday tashvish uni bukolmas, uni sindirolmas ekan. Aksincha, bu sinovlar insonning irodasini yanada mustahkamlar, insonni yanada bardoshli qilar ekan. Aslida inson so'zining ma'nosi ham "ko'nikuvchan"dir. Zuhra aynan shunday qiz bo'la oldi. U boshiga tushgan judoliklardan gangib qolmadi, aksincha

hayotning bu achchiq sinovi uni yanada yuksaltirdi, hayotga bo'lgan qarashlarini o'zgartirdi. Zuhra hayotda o'z yo'lini ham topib keta oldi. Balki muallif aynan Zuhra obrazida, 17 toshli qiz obrazida, kishilarni matonatli, hayotda yashash uchun kurashuvchan bo'lishga chorlagandir. Hayotda mana shunday taqdir bilan ham oldinga harakat qilayotgan insonlar ham borligini nazarda tutgandir...

## 2-fasl. Romanda shaxs fojeasining ifodasi

“Fotima va Zuhra” romanida konfliktning ko‘proq shaxslar o‘rtasidagi va ijtimoiy muhitga nisbatan bo‘lgan turlarini kuzatishimiz mumkin. Asar detektiv janridagi roman bo‘lganligi bois ham unda alohida shaxslar o‘rtasida yuzaga chiqqan ziddiyatlar tasviri o‘rin olgan. Mayor Aliyev va Fotima- Zuhra obrazlarida ijtimoiy muhitga bo‘lgan konflikt oshkora ko‘rinishi namoyon bo‘ladi.

Mayor Aliyev militsiya sohasida ishlaganligi sababli ko‘plab xunrezliklarning guvohi bo‘lgan, adolatsizlikning achchiq mevasidan totgan insondir. Shu sababli ham unda ko‘proq ayrim shaxslarga, o‘z ijtimoiy muhitiga nisbatan konflikt yuzaga keladi. Biz uning bu haqidagi mulozalarini “Shifokor” kolxoziga borganda duch kelgan. Kolxozdagi noqonuniy ravishda yetishtirilayotgan ko‘knori va u keltirib chiqargan fojealar mayorning qalbida shunday muhitni yaratayotgan shaxslarga va qanchadan-qancha odamlarning umriga zomin bo‘layotgan bu yaramaslarni o‘z bag‘ riga sig‘ dirayotgan tuzumga nisbatan nafrat tuyg‘ usini yuzaga keltiradi. Lekin mayordagi bunday xarakterining shakllanishi Yo‘g‘ ontepaga kelishidan avvalroq bu kasbni tanlaganidayoq boshlangan edi. U bu baloning qandayligini, u keltirib chiqaradigan falokatlarni juda yaxshi anglar edi: “Aliyev bangalik balosiga giriftor bo‘lganlarning ko‘pini biladi. Yaxshi-yaxshi oilalarning farzandlari. erkalik, yolg‘ izlik, to‘qlik ba’zilarini shu ko‘chaga boshlagan. qizlarning aksariyati esa soddalik qilib qo‘lga tushishgan. Turmush qurish niyatida aldanib, qo‘lma-qo‘lma bo‘lib ketishgan. Yig‘ lashadi, yalinishadi, ammo bu yo‘ldan chiqib ketisholmaydi... <sup>45</sup>”.

Bularni to‘g‘ ri anglagan Aliyev bu baloi ofatga qarshi kurashishga o‘zini burchli deb biladi. Lekin u tanlagan yo‘lida ulkan to‘siqlar, qarshiliklarga uchraydi. Ya’ni unga, oilasiga po‘pisa qila boshlashadi. Uning o‘g‘ liga, rafiqasiga, atrofidaqilariga bir necha marotaba zarar yetkazishmoqchi bo‘lishadi. Aliyev

---

<sup>45</sup> Umarbekov O‘. Fotima va Zuhra. Roman. –Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2005-yil, 9-bet

ba'zan o'ylab qoladi: "Yo Alijon haqmidi, bu ishdan qaytish kerak, deganida? Nahotki boshqa militsiya ofitserlari ularning aytganiga rozi bo'ladi? Nahotki bitta u shunday xalqparvar bo'lsa? Mutlaqo aqlga to'g'ri kelmaydigan gap...".<sup>46</sup> Ammo mayor ularning po'pisalaridan tahlikaga tushadigan hamkasblaridan emas edi. U haqiqat, adolat uchun kurashishda ortga chekinmaydi. Chunki, undagi ijtimoiy muhit, jinoyatchilar to'dasiga nisbatan hosil bo'lgan konflikt xarakterining shakllanishida sosiy o'rin tutadi, albatta. Shuning uchun ham mayor bu konflikt natijasida o'z burchini yaxshi anglaydigan, adolatni, haqiqatni tiklash yo'lida matonat bilan harakat qiladigan irodali, jur'atli inson sifatida shakllangan edi. Shuning uchun ham ko'rsatilayotgan tahdidlarga qaramsdan, o'z yo'lida to'xtamaydi. "Aliyevni bir boshlagan ishini chala tashlab ketadigan odati yo'q. u oxirigacha kurashadi. Zuhraning har qanday erkakni yer bilan bitta qiladigan achchiq qarashlarini unutilmaydi. Hech kim oldida bo'lmasa ham, shu qizcha oldida o'zining, fqat o'zining emas, butun militsiyaning nimaga qodirligini u ko'rsatishi kerak".<sup>47</sup>

Aliyev o'z o'rnida o'z zamonasidan, uning odamlaridan ham norozi bo'ladi. Uni o'rab turgan, u yashayotgan ijtimoiy muhitga u ko'pda qoniqmaydi. Odamlarning bir-biriga bo'lgan munosabati, insoniylikning faqatgina qog'ozlarda qolib ketishi, birov bilan birovning ishi yo'qligi, loqaydlik uning qalbini iztirobli o'ylar iskanjasiga oladi. Aliyev o'zi yashayotgan muhitidan ko'ngli to'lmaydi, qoniqmaydi: "Bizda qachon o'zi odam-odamni ayaydigan, ko'nglini ko'tarib, qurbi yetgancha hojatini chiqaradigan zamon bo'lgan edi? Bo'lgan emas. Minbarda bo'lgan, chiroyli ma'ruzalarda bo'lgan, lekin hayotda boyning oshig' I olchi, kambag'alning holi voy bo'lib kelavergan. Aliyev bu gaplarni ovoz chiqarib aytolmaydi. Aytsa bo'ladi, hech kim uni urishmaydi, qamamaydi. Lekin eng yuqori jazoga hukm qilinadi: e'tiborsizlikka, ishsizlikka, yolg'izlikka! Buni yaxshi biladi".<sup>48</sup> Chindan ham, Aliyev yashagan muhit haqiqatni aytishga yo'l qo'ymas,

---

<sup>46</sup> Umarbekov O'. Fotima va Zuhra. Roman. –Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2005-yil, 116-bet

<sup>47</sup> Umarbekov O'. Fotima va Zuhra. Roman. –Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2005-yil, 116-bet

<sup>48</sup> Umarbekov O'. Fotima va Zuhra. Roman. –Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2005-yil, 85-bet

unda faqat chetdan kelgan buyruqlar ijrosinigina ado etish bosh vazifa hisoblanardi. Afsuski, bu muhit, bu tuzum Aliyevning harakatlariga-da, qarshilik qildi. Uning haqiqatni qaror toptirish uchun qilgan harakatlari kimningdir, tinchini buzganligi bois uni ishdan bo'shatishadi. Ammo Aliyev bundan iztirob chekmaydi, aksincha o'z burchini unutmagan holda, endi o'zigina mustaqil harakat qilishi kerakligini anglaydi. Aliyev shunday xarakter egasi edi, ya'ni u boshqa ba'zi hamkasblariga o'xshab bu muhit iskanjasiga tushib qolmadi, unga tobe bo'lmadi va o'zligini-da yo'qotmadi. Unga xos qat'iyatlilik, halollik, uni Teshaboy Sultonov kabilarga bo'yin egishga, ularning yo'rig'iga yurishga, bu jinoyatlarning sherigi bo'lib qolishiga yo'l qo'ymaydi. Chunki uning xarakteriga bu illatlar begona edi. U adolat albatta qaror topishiga ishonar, chunki hali dunyoni yovuzlik butunlay qamrab olmaganini, yorug' kunlar kelishini bilardi.

Zuhra onasiz o'sganligi, akasining oddiy muallimligi uchun jamiyatda qanday "ijtimoiy mavqe"ga ega ekanliklarini ham anglaydi. Ayniqsa, opasining fojeasidan keyin buning qanchalar ahmayyatga, o'ringa ega ekanligini his etadi, natijada uning qalbida bu muhitga nisbatan konflikt yuzaga keladi. Opasining imijimida ko'mib yuborilishi, uning dodiga hech kim quloq solmasligi, jamiyatdagi bunday qadolatsizlik Zuhra xarakteri shakllanishida muhim o'rin tutadi. atrofida bo'layotgan adolatsizliklar uning boshqalarga bo'lgan ishonchini so'ndiradi: "Meni kechiring, siz ham tekshirib, ularni topa olishingizga ishonmayman. O'zing uchun o'l, yetim. Biz Fotima ikkalamiz yetimmiz. Otamiz oddiy o'qituvchi, oyligidan boshqa, tomorqadan boshqa daromadi yo'q. biz hech qachon birovlarining qo'lidan haqiqat topolmaymiz".<sup>49</sup> 17 yoshli bu qizning gaplaridan ko'rinib turibdiki, yosh bo'lishiga qaramsadan, jamiyatning yozilmagan qonunlarini, unda, mavjud bo'lgan nohqaliklarni yaxshi anglaydi. Ayniqsa, uydan qizining qasosini olaman deb chiqib ketgan Abdulla akaning vahshiylarcha o'dirilgan jasadining kirib kelishi Zuhraning fikrlarini yanada oydinlashtiradi, o'zi qaror qabul qilib, o'zicha ish tutishiga sabab bo'ladi. "nima uchun endi bitta uydan

---

<sup>5</sup> Umarbekov O'. Fotima va Zuhra. Roman. –Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2005-yil, 84-bet

ikkita begunoh odam o'lib ketaverishi kerak? Bunaqada qanday yashab bo'ladi?".<sup>50</sup> Zuhrani bu tuzumdan, atrofdagilardan norozi qilgan tuyg' u uni o'zi qasos olishga chorlaydi. Opasini, adasini nohaq o'ldirilishi Zuhra qalbida ularga nisbatan ham nafratni tug' ilishiga olib keladi. Bu shaxslarga nisbatan konfliktning ko'rinishidir. Qotillarning haligacha tutilmagani, ularning jazosiz ozodlikda yurishi uni g' azablantiradi. "Nahotki, qotillar, o'sha o'sha zo'ravonlik qilganlarning otanalari yoq? Nahotki, odamlar shunchalik o'zlarining odamlilik basharalrini yo'qotganlar? Ularning yashashi, minglab, millionlab adasi, Fotimaga o'xshaganlar orasida yurishi, ular bilan gaplashishi, ovqatlanishi, to'y-hashamlarda bir lagandan osh yeyishlari qaysi mantiqqa to'g' ri keladi?".<sup>51</sup> Zuhra mana shunday o'y-xayollar iskanjasida bunday yovuzliklarga yo'l qo'ygan qo'ygan, Teshaboy Sulstonov kabi yaramas kimsalarni bag' riga olgan jamiyatga nisbatan norozilik hissini tuyadi. Zuhar hayotida sodir bo'lgan voqealar, u duch kelgan hohaqliklar uni kurashuvchan, o'zi uchun harakat qiladigan, irodali, jur'atli xarakterdagi qiz bo'lib shakllanishiga sabab bo'ladi. U hattoki, militsiya xodimlariga-da ishonmaydi, uning bunday xarakterda shakllanishiga sabab bo'lgan muhit uning ruhiyatiga ham o'z ta'sirini o'tkazgan edi. Uning ruhiyatida boshqalarga ishonch, o'zgalardan ko'mak kutish, odamlarning samimiyli haqidagi xususiyatlari yo'qolgan, balki yo'qotilgan edi.

Mazkur ikki qahramon xarakteri, ruhiyatidagi o'zgarishlardan ham ko'rishimiz mumkinki, insonni o'rab turgan, u tug' ilib, voyaga yetayotgan muhit hammaga ham bir xil tarzda ta'sir etavermas ekan. Kimdir bu muhit qurboniga aylanadi (Fotima, Abdulla aka, Aliqulotboqar), kimdir esa bu muhitning-da tizginini qo'lga olishga harakat qiladi.

Teshaboy Sulstonov ana shunday qahramonlar sirasiga kiradi. U o'zi yashab turgan muhit, jamiyat holatidan unumli foydalanadi: bir kolxozga nafaqat raislikni, balki hukmronlikni ham o'z qo'lga oladi. Teshaboy Sulstonov atrofidagi sharoitni to'g' ri anglab yetgan holda, o'zi uchun bu dunyoda yashash sirini kashf etadi.

---

<sup>50</sup> Umarbekov O'. Fotima va Zuhra. Roman. –Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2005-yil, 161-bet

<sup>51</sup> Umarbekov O'. Fotima va Zuhra. Roman. –Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2005-yil, 166-bet

Ya'ni uning shaxsiyatida hamma narsani pul bilan o'lchaydigan, insoniylikdan yiroq, boyluk, mol-davlatga o'ch, o'z nafsini hamma narsadan, hatto, insonning aziz umridan-da ustun qo'yadigan xarakterdagi kishi shakllangan. Albatta bu narsa uning harakatlariga ham ko'chmasdan qolmaydi. Agar bu muhit mayor Aliyevni adolatparvar, halol, Zuhrani esa mard va qasoskor insonga aylantirgan bo'lsa, Teshaboy Sultonovni nafsi buzuq, yovuz, insoniylikdan yiroq qotilga aylantirdi. U nafaqat o'z qo'li bilan yo'liga to'g' anoq bo'lganlarni qotiliga aylandi, balki u yetishtirib, ortidan tunganmas boyluk olib kelayotgan ko'knori ham nech-necha insonlarning umriga zomin bo'ldi, hayotini do'zaxga aylantirdi. U nafaqat bu bilan cheklanib qoldi, shuning bilan birga qishloqning soda yigitlarini-da o'z yo'liga yurgizib, jinoyatiga sherik qildi. Uning xarakteridagi bu illatlar rais ruhiyatiga yovuzlik urug' ini qaday boshlaydi. Endi u nafaqat atrofida gilarni, shuningdek yuqori mansab egalarini ham "o'zinikiga aylantirish" orqali o'z hukmronlik doirasini kengaytirishga urina boshladi. Uning uchun bu dunyoda adolat, vijdon, uyat, achinish kabi tuyg' ularning qadri yo'q edi. Unda yuzaga keladigan konflikt ham shunga yarasha: yo'liga to'siq bo'lganlar, ishiga xalaqit qilganlar, aytganini bajarmaganlar u dushmanlik ruhida bo'lar edi. Buning oqibati esa u bilan ziddiyatga borgan hech bir kishiga yaxshilik olib kelmasligini barcha anglardi. Huquq posboni Ashuralining o'limi, Aliyevga qilingan tahdidlar, Shohidaning, Hamidullaning boshiga tushgan kulfatlar, Aliqul otboqarning fojeasi bularning barchasi yuqoridagi fikrimizning bir dalilidir. Uning xarakterida, hatto, oqibat, kishilar xizmatiga yarasha munosib baho, unga qulluq qilganlar xizmatini qadrlash kabi xususiyatlar o'rnini ham manfaat egallagan edi. Xususan, necha yillardan buyon uni o'z qanoti ostida saqlab kelayotgan Usmonovni haqning ko'proq qismiga egalik qilmoqchi bo'lganligi bois 'z qo'li bilan o'ldirganligi unga yuz-xotir qilishning begonaligini ko'rsatib turibdi. Yoki itdek sodiq xizmatkori Odamboyga qilgan munosabatini olaylik. "Lekin lan'ati qanchalik sodiq bo'lmasin, bir kun undan qutulishkerak...".<sup>52</sup> Raisdan o'zgani odam deb

---

<sup>52</sup> Umarbekov O'. Fotima va Zuhra. Roman. –Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2005-yil, 229-bet

bilmaydigan uning buyruqlarini-da ado etishga ko'nikkanxizmatkoriga nisbatan bunday fikrda bo'lishi Teshaboy Sultonovning asl basharasini, bu dunyoda uning o'zidan, manfaatlaridan ustun qo'yadigan hech bir narsasi yo'qligini ko'rsatadi. Rais ruhiyatidagi bunday yovuzlik qanday yuzaga kelganligi asarda ko'rsatib o'tilmaydi yoki biror izoh berilmaydi. Lekin uning xarakteridagi boylikka hirs qo'yish uni shu darajaga keltirib qo'ygandi.

Zokir, To'xta, Tursunov, Hamidulla obrazlarida ham muhitning salbiy ta'siri natijasida yengil, har qanday qadriyatlardan holi hayotda yashashni afzal ko'ruvchi, oson pul topish, boylik orttirishni o'ylaydigan, fazilatlardan ko'ra illatlarning sohibi bo'lgan xarakterdagi shaxslar qiyofasini ko'rishimiz mumkin.

Umuman olganda, asardagi obrazlarni xarakteri, ruhiyati yo'nalishiga ko'ra ikki qutbga ajratishimiz mumkin. Birinchi qutbni Teshaboy Sultonov boshchilidagi nafs bandalari tashkil etsa, ikkinchi qutbni ularga qarshi kurashuvchi, haqiqat va adolat tarafdorlari bo'lgan Aliyev hamrohligidagi insonlardir.

Xullas, muallif ta'kidlaganidek, ushbu asarda ezgulik va qabohat, muhabbat va nafrat, haqgo'ylik va adolatsizlik, or-nomus va nopoklik o'rtasidagi kurashda kim mag'lub bo'ladi, kim yengadi? Armon va umid, iztirob va shodlik qanday iz qoldiradi? Alamni unutib bo'ladimi?

Ota-ona, aka-uka, opa-singil orasidagi qildan nozik, tog' dan og'ir rishta nima? kabi savollarga ushbu qahramonlar xarakteri, ruhiyati orqali javob topishingiz mumkin.



### **3-fasl. Xarakterlararo konflikt talqini**

Badiiy adabiyotining taraqqiyotiga va rivojiga turfa xil janrdagi asarlari bilan katta hissa qo‘shgan iste’dodli ijodkorlardan biri O‘lmas Umarbekovdir. Yozuvchining turli janrdagi asarlari bilan bir qatorda roman janrdagi asarlari ham o‘zbek adabiyotining taraqqiyotiga sezilarli hissa bo‘lib qo‘shilganligini alohida qayd etish lozim. Yozuvchining turfa xil mavzudagi ya’ni ijtimoiy muhitning murakkab qirralarini inson xarakteri orqali ifodalab bergan “Odam bo‘lish qiyin”, hayot ziddiyatlarini jinoyat va jazo olamidagi inosn ruhiy – ma’naviy iztiroblarini dedektiv xarakterdagi “Fotima va Zuhra” romanlarida tasvirlagan, bo‘lsa, hayotni, insonning turfa xil xislatlarini mahorat bilan yoritib berganligini kuzatish mumkin.

Adabiyotshunos Sobir Mirvaliyev yozuvi ijodi haqida so‘z yurutar ekan, quyidagi fikrlarni alohida qayd etadi: “Iste’dodli adib O‘lmas Umarbekov barhayotligidayoq o‘z tengdoshlari va zamondoshlarining hurmat – e’tiborini qozonish baxtiga muyassar bo‘lganlardan. Buning ustiga o‘z zamondosh ustozlari e’zozidan ham bahra topgan. Bunday holat faqat o‘sha iste’dodning baxtigina bo‘lib qolmay, balki u mansub bo‘lgan adabiyotning ham omadi, ravnaqidan bir dalolatdir... badiiy asarlarda – ular xoh hikoya, xoh roman, xoh sahna asarlari bo‘ladimi, hamma – hammasida inosnlardagi ma’naviy axloqiy fazilatlarni ardoqlashga, ulug‘ lashga intildi”(1, 137-138-betlar).

Darhaqiqat, O‘lmas Umarbekov turfa xil janrdagi asarlarda inosnning ma’naviy – axloqiy xususiyatlarini, xarakter shakllanish jarayonidagi ijtimoiy muhitning sezilarli ta’sirini tasvirlab bergan. Shu nuqtai nazardan, “Odam bo‘lish qiyin”, “Fotima va Zuhra” romanlaridagi badiiy tasvirlarga nazar tashlar ekanmiz yuqorida qayd qilingan fikrlarning zamirida asos borligini teranroq his eta boshlaymiz.

Jamiyatda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar badiiy adabiyotda o‘z inikosini topa boshladi. Shu jihatdan jamiyat va inson, inson va insonlararo, tabiat va shaxs o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar teranroq badiiy adabiyotda talqin etildi. Ana shunday bir sharoitda murakkab ijtimoiy muhit murakkab inson xarakterlarini

shakllanishi uchun zamin bo'ldi. Bu holatni adibning jinoyat va jazo olamidagi inson qismati va fojealarini talqin etuvchi "Fotima va Zuhra" romanini alohida qayd etib, detektiv xarakterdagi asarlar qatoridan o'rin olganligini ham ta'kidlash lozimdir.

Adabiyotshunos H. Karimov qayd qilganidek: "Detektiv asar voqealari juda katta mantiq asosiga qurilmog' I va uning mohiyati kuchli falsafiy tafakkur orqali ochilmog' i darkor. Ana o'shandagina asar jinoyat xususida yozilgan lavha, badiiy va hujjatli ocherklardan farq qilib, badiiy asarga aylanadi" (2, 213-bet). Qayd qilinganidek, bu roman sujeti o'ziga xos falsafiy mushohadalarni o'zida mujassamlashtirganligi bilan alohida ajralib turadi.

Roman sujetida o'ziga xos talqin usulini kuzatar ekanmiz, poetik obrazlarni, inson botiniy olamidagi ziddiyatlarni haqqoniy ko'rsatib berish an'anasi dedektiv xarakterdagi asarlarda yanada teranroq o'z aksini topmoqda.

Asar detektiv janridagi roman bo'lganligi bois ham unda alohida shaxslar o'rtasida yuzaga chiqqan ziddiyatlar tasviri o'rin olgan. Mayor Aliyev va Fotima-Zuhra obrazlarida ijtimoiy muhitga bo'lgan konfliktning oshkora ko'rinishi namoyon bo'ladi.

Mayor Aliyev militsiya sohasida ishlaganligi sababli, ko'plab xunrezliklarning guvohi bo'lgan, adolatsizlikning achchiq mevasidan totgan insondir. Shu sababli ham unda ko'proq ayrim shaxslarga, o'z ijtimoiy muhitiga nisbatan konflikt yuzaga keladi. Biz uning bu haqidagi mulozalarini "Shifokor" kolxoziga borgandagi holatida yanada teranroq anglaymiz. Yozuvchi bu o'rinda asar qahramonining botiniy olamidagi ziddiyatlar asosida uning o'ziga xos xarakterini yuzaga chiqara olgan. Kolxozdagi noqonuniy ravishda yetishtirilayotgan ko'knori va u keltirib chiqargan fojealar mayorning qalbida shunday muhitni yaratayotgan shaxslarga va qanchadan-qancha odamlarning umriga zomin bo'layotgan bu yaramaslarni o'z bag' riga sig' dirayotgan tuzumga nisbatan nafrat tuyg' usini yuzaga keltiradi. Lekin mayordagi bunday xarakterining shakllanishi Yo'g' ontepaga kelishidan avvalroq bu kasbni tanlaganidayoq boshlangan edi: "Aliyev bangilik balosiga giriftor bo'lganlarning

ko‘pini biladi. Yaxshi-yaxshi oilalarning farzandlari. erkalik, yolg‘ izlik, to‘qlik ba‘zilarini shu ko‘chaga boshlagan, qizlarning aksariyati esa soddalik qilib qo‘lga tushishgan. Turmush qurish niyatida aldanib, qo‘lma-qo‘lma bo‘lib ketishgan. Yig‘ lashadi, yalinishadi, ammo bu yo‘ldan chiqib ketisholmaydi...” (2, 9-bet).

Bularni to‘g‘ ri anglagan Aliyev bu baloi ofatga qarshi kurashish o‘zining burchi deb hisoblaydi. Lekin u tanlagan yo‘lida ulkan to‘siqlar va qarshiliklarga uchraydi. Ya’ni unga, oilasiga po‘pisa qila boshlashadi. Uning o‘g‘ liga, rafiqasiga, atrofidagilariga bir necha marotaba zarar yetkazishmoqchi bo‘lishadi. Aliyev ba‘zan o‘ylab qoladi: “Yo Alijon haqmid, bu ishdan qaytish kerak, - deganida? Nahotki, boshqa militsiya ofitserlari ularning aytganiga rozi bo‘ladi? Nahotki, bitta u shunday xalqparvar bo‘lsa? Mutlaqo aqlga to‘g‘ ri kelmaydigan gap...”(2, 116-bet).

Ammo mayor ularning po‘pisalaridan tahlikaga tushadigan hamkasblaridan emas edi. U haqiqat, adolat uchun kurashishdan ortga chekinmaydi. Chunki, undagi ijtimoiy muhit, jinoyatchilar to‘dasiga nisbatan hosil bo‘lgan konflikt xarakterining shakllanishida asosiy o‘rin tutadi. Shuning uchun ham mayor bu konflikt natijasida o‘z burchini yaxshi anglaydigan, adolatni, haqiqatni tiklash yo‘lida matonat bilan harakat qiladigan irodali, jur‘atli inson sifatida shakllangan edi. Shuning uchun ham ko‘rsatilayotgan tahdidlarga qaramsdan, o‘z yo‘lidan qaytmaydi: “Aliyevni bir boshlagan ishini chala tashlab ketadigan odati yo‘q, u oxirigacha kurashadi. Zuhraning har qanday erkakni yer bilan bitta qiladigan achchiq qarashlarini unutilmaydi. Hech kim oldida bo‘lmasa ham, shu qizcha oldida o‘zining, faqat o‘zining emas, butun militsiyaning nimaga qodirligini u ko‘rsatishi kerak ”(2, 116-bet).

Aliyev o‘z o‘rnida o‘z zamonasidan, uning odamlaridan ham norozi bo‘ladi. Uni o‘rab turgan, u yashayotgan ijtimoiy muhitdan qoniqmaydi. Odamlarning bir-biriga bo‘lgan munosabati, insoniylikning faqatgina qog‘ ozlarda qolib ketishi, birov bilan birovning ishi yo‘qligi, loqaydlik uning qalbini iztirobli o‘ylar iskanjasiga oladi. Yozuvchi O‘lmas Umarbekov bu holatni quyidagi talqinlarda ifodalab bergan:

“Bizda qachon o‘zi odam-odamni ayaydigan, ko‘nglini ko‘tarib, qurbi yetgancha hojatini chiqaradigan zamon bo‘lgan edi? Bo‘lgan emas. Minbarda bo‘lgan, chiroyli ma‘ruzalarda bo‘lgan, lekin hayotda boyning oshig‘ i olchi, kambag‘ alning holi voy bo‘lib kelavergan. Aliyev bu gaplarni ovoz chiqarib aytolmaydi. Aytsa bo‘ladi, hech kim uni urishmaydi, qamamaydi. Lekin eng yuqori jazoga hukm qilinadi: e‘tiborsizlikka, ishsizlikka, yolg‘ izlikka! Buni yaxshi biladi”(2, 85-bet).

Darhaqiqat, Aliyev yashagan muhit haqiqatni aytishga yo‘l qo‘ymas, unda faqat chetdan kelgan buyruqlar ijrosinigina ado etish bosh vazifa hisoblanardi. Afsuski, bu muhit, bu tuzum Aliyevning harakatlariga-da, qarshilik qildi. Uning haqiqatni qaror toptirish uchun qilgan harakatlari kimningdir, tinchini buzganligi bois uni ishdan bo‘shatishadi. Ammo Aliyev bundan iztirob chekmaydi, aksincha, o‘z burchini unutmagan holda, endi o‘zigina mustaqil harakat qilishi kerakligini anglaydi. Aliyev shunday xarakter egasi edi, ya‘ni u boshqa ba‘zi hamkasblariga o‘xshab bu muhit iskanjasiga tushib qolmadi, unga tobe bo‘lmadi va o‘zligini-da, yo‘qotmaydi. Unga xos qat‘iyatlilik, halollik, uni Teshaboy Sultonov kabilarga bo‘yin egishga, ularning yo‘rig‘ iga yurishga, bu jinoyatlarning sherigi bo‘lib qolishiga yo‘l qo‘ymaydi. Chunki, uning xarakteriga bu illatalr xos emas edi. U adolat, albatta, qaror topishiga ishonar, hali dunyoni yovuzlik butunlay qamrab olmaganini, yorug‘ kunlar kelishini bilardi. Bu o‘rinlarda o‘z muhitiga qarshi kurasha olgan shaxs timsolini ko‘ramiz. Aliyevning harakatlari tufayli kech bo‘lsa-da adolat tantana qiladi. Yozuvchi asar sujetining barcha o‘rinlarida adolat va adolatsizlik kabi tushunchalarga alohida urg‘ u bermasa-da, Aliyev timsolida bu holatlar, ya‘ni haqiqat uchun kurashish yetakchilik qilganligini kuzatamiz.

Umuman olganda, asardagi obrazlarni xarakteri, ruhiyatining yo‘nalishiga ko‘ra ikki qutbga ajratishimiz mumkin. Birinchi qutbni Teshaboy Sultonov boshchilidagi nafs bandalari tashkil etsa, ikkinchi qutbni ularga qarshi kurashuvchi, haqiqat va adolat tarafdorlari bo‘lgan Aliyev hamrohligidagi insonlar timsolida talqin etilganligini alohida ta‘kidlash lozim.

## XULOSA

Iste'dodli yozuvchi O'lmas Umarbekovning barcha asarlarida ijtimoiy muhitning turli qirralari badiiy talqin etilgan bo'lsa, muhit ta'sirida shakllanayotgan inson qismati, hayot ziddiyatlari zamiridagi xarakterlar shakllanishini kuzatamiz. Inson shakllanishi davomida turli haoyitij voqealarni, ziddiyatlarni o'z boshidan kechiradi. Ammo ijodkor bu ziddiyatlarni o'z fantazyasi orqali aks ettirar ekan, uning turfa xil xislatlarini, botiniy olamidagi qarama – qarshiliklarni, xarakter shakllanish jarayoniga singdiradi. Shu jihatdan, inson tafakkuridagi evrilishlarning yuzaga chiqishida ham ijtimoiy muhit va xarakter o'rtasidagi dialektik birlikni badiiylashtirish natijasida, hayotning eng go'zal onlarini, shu bilan birga chirkin tomonlarini ham asosli talqin etadi. Bu jarayonda yozuvchi badiiy obrazlarni yaratar ekan, ijtimoiy muhitning inson xarakteriga ta'sirini yoki xarakter darajasidagi badiiy obrazlarning ijtimoiy muhitga ta'sir etish jarayonlarini badiiylashtiradi. Bu esa yozuvchi romanlaridagi sharoit mantig' i bilan xarakterlar o'rtasidagi o'zaro dialektik birlikni tahlil etish an'anasini yuzaga chiqaradi. Ana shu jihatdan, iste'dodli yozuvchi O'lmas Umarbekov romanlardagi xarakter va sharoit mantig' ining ijtimoiy muhit birligida o'rganishni talab etadi.

Binobarin, yozuvchining qalamiga mansub bo'lgan va inson xarakterdagi turfa xil o'zgarishlarni umumlashtirgan badiiy jihatdan mukammal "Odam bo'lish qiyin" romani asosida shaxs xarakterdagi evrilishlarni, xarakterning shakllanish jarayonlarini, yoshlar taqdiri, yoshlar kelajagi, yoshlar muhabbati va fojealariga asoslangan holda badiiy talqin etilganligini kuzatamiz. Faqat mazkur romanda yozuvchining hayotga va inson xarakterdagi turfa xil o'zgarishlar, turli voqealar silsilasida badiiy xarakterlarni yuzaga chiqarganligiga alohida e'tibor qaratildi.

O'lmas Umarbekov romanlarida hayot voqeligini aks ettirish jarayonida hayotga, insonning botiniy olamiga o'z fantazyasi nuqtai nazaridan yondashadi. Voqelikni aks ettirishda, shaxsning shakllanishida ijtimoiy muhitning roli beqiyos ekanligi alohida badiiy tasvir vositalari asosida talqin qilingan. Shuning uchun inson qaysi darajaga ko'tarilmasin, uning ijtimoiy muhitga bo'lgan munosabati turfa xil ohanglarda talqin etilganligiga alohida e'tibor qaratildi. Yozuvchining asar

qahramonlarini bolalik xotiralari orqali, uning beg' ubor onlariga, yetuk insoniy fazilatlariga alohida diqqat qilgan bo'lsa, davrlar o'tishi bilan beg' ubor damlarni unutilishi, o'z muhitiga singib borishi natijasida qilgan xatoliklarini anglashga imkon bermaydigan voqeliklarni badiiy jonlantiradi. Ammo davrlar o'tishi bilan qilgan xatoliklarni, uning sabablarini anglashga, his qilishga majbur bo'lgan qahramonlar fojeasini haqqoniy aks ettira olgan. Xuddi bu tasvirlar real hayot voqealar silsilasida namoyon bo'lgandek, taassurot uyg' otadi. Lekin bu talqinlar zahirida, inson fojeasini, qilgan xatoliklarini yuzaga chiqarishda badiiy fantaziyadan unumli foydalanadi. Bu esa, ijtimoiy muhit va xarakter o'rtasidagi o'zaro birlikni badiiy tasvirlarda yuksak darajada aks ettirganligidan dalolat beradi.

Endi bu yerda fojealarning sirini tahlil etish asosiy maqsad emas, balki xarakter va voqealar fojeasining ildizlari nimada ekanligini tahlil etish asosiy vazifamiz bo'lganligi uchun ham, yozuvchining bu jarayondagi yuksak mahoratiga alohida to'xtalib o'tdik. Romandagi obrazlar tizimiga nazar tashlansa ularning hayoti badiiy tugun vositasida kitobxonni voqealar rivojiga bo'lgan ehtiyojini uyg' otadi. Bu talqin sujetning tarkibiy qismi bo'lgan "tugun" badiiy unsur asosida o'z ifodasini topgan.

Romanni varaqlab, o'qishga kirishar ekanmiz, xayolimizda qahramonlar taqdiri har qanday kitobxonni mushohada qilishga majbur etadi. Siz asar so'ngigacha qahramonlarning murakkab taqdir egasi ekanligiga javob topishga intilasiz. Voqealar tasvirida sujet tarkibidan o'rin olgan qahramonlar harakat qiladigan makon Mingbuloq va uning odamlarining sodda va beg' uborligi, ulardagi mehr rishtalarining yuzaga chiqish sabablari o'quvchini bu qahramonlarga nisbatan mehr va muhabbatini namoyon qiladi. Shu bilan bir qatorda, asardagi voqealar silsilasi xarakterlarninig shakllanishiga ma'lum bir o'rinlarda ijobiy yoki salbiy ta'sirini o'tkazadi.

Romandagi Abdulla va Gulchehra munosabatlari butun asar mazmuni tashkil etadi. Ana shu xususiyat asardagi obraz va muhit o'rtasidagi uzviy birlikni, xarakter va sharoit o'rtasidagi o'zaro mantiqiy dialektik birlikni namoyon qiladi. Biz tahlil davomida insoniylik va noinsoniylik o'rtasidagi ziddiyatlarga alohida

e'tibor qaratdik. Bunday tahlil xususiyati xarakterlar o'rtasidagi ziddiyatlarni, o'zaro kurashlarni, hatto konfliktning turfa xil ko'rinishlarini yuzaga chiqarganligiga ishonch hosil qildik. Bunday tasvir xususiyatlarini nazariy qarashlar asosida tahlil qilishga intildik.

Atoqli adib Said Ahmad "Odam bo'lish qiyin" romaniga yozgan so'zboshisida asarni "G'uborsiz tuyg' ular madhi", degan edi. Haqiqatan ham, romandagi Gulchehra va Abdullalarning muhabbati beg'ubor bolalikning yorqin xotiralari sifatida kitobxon ko'z o'ngida jonlanadi.

Natijada, ikki yoshning ana shu g'uborsiz tuyg' ulari hayot tashvishlariga qorishib, bolalik onlarining faqat yorqin xotiralardagina jonlanishi, keyinchalik esa bolalikning beg'ubor onlaridan, fojealar sari qadam qo'yilishiga guvoh bo'lamiz. Abdulla subutsiz, xudbin yo'lga o'tib, Gulchehra qolib Sayyorani sevib, shaxsiy manfaatlarni ustun qo'yishga va o'zining insoniy fazilatlarini asta-sekin unuta boshlaganligi o'quvchida unga nisbatan salbiy tushunchani uyg'onishiga sabab bo'ladi. Gulchehra arxitektor qiz, ana shu dramatik ruhiy holatda qurilishda yiqilib, fojea ro'y beradi. Shu o'rinda fojea aybdorini aniqlash emas, balki xuddi ana shu davrda yoshlar hayotida, ichki olamida sodir bo'layotgan sahfgatsizliklar yozuvchi fantaziyasi orqali mahorat bilan yoritilgan.

Adibning ikkinchi romani "Fotima va Zuhra" romanida mustaqillik yillari arafasida, xalqimiz hayotida ro'y berayotgan fojealarni haqqoniy yoritgan. Asar sujetidan o'rin olgan voqealar silsilasi inson tafakkurdagi evrilishlarni, fojelarni, shaxsning o'z mansab lavozimlarini suyiste'mol qiish holatlarini, inson xarakteridagi salbiy jihatlarini yuzaga chiqishda ijtimoiy muhit yetakchi rol o'ynaganligini kuzatamiz.

Adib bu asarda ham o'zining estetik prinsiplariga sodiq qolgan holda, yana bir katta fojea haqidagi voqealar silsilasini umumlashtiradi. Ma'lumki, asar sujetidan o'rin olgan asosiy qahramonlardan biri Abdullajon obro'li, e'tiborli o'qituvchi bo'lib, o'z davrining, ijtimoiy muhitining qurboniga aylanadi. Bu tushuncha orqali yozuvchi bir oila fojeasi zahirida, davrning shiddatli qarama-qarshiliklarni badiiy tasvirlaydi. Uning qizlari Fotima va Zuhralar va o'g'li

Hamidulla shu oilada tarbiya topgan. Ularning hayoti, turmushi oddiy bo'lsa ham zavqli, jozibali edi. Ammo oila farzandi Hamidullaning harbiydan qaytgandan so'ng, bir to'da uyushgan jinoyatchilarning guruhiga tushib qolishi, ko'knori iste'mol qilishi, qimor o'ynaganligi oqibatida o'z singlisi Fotimani boy berib qo'yishi, natijada uning xarakterida yovuzlikning kurtak ota boshlaganligini yozuvchi voqealar rivojida namoyon qilgan.

Asarda tasvir etilgan uyushgan jinoyatchilar to'dasi faqat Abdullajonlar oilasinigina emas, o'nlab, yuzlab kishilar taqdiriga, hatto jamiyat rivojiga xavf soladi. Romanda ana shu davrda sodir bo'lgan uyushgan jinoyatchilik va u qoldirgan katta iqtisodiy-ma'naviy qashshoqlik bir qator obrazlar misolida talqin etilgan. Adolat g' olib kelib, ma'naviyat degan noyob ne'mat saqlanib qoladi. Roman shu haqda juda qiziqarli, shirali tilda hikoya qilinadi. Shuning uchun ham, bu roman tezda sahnaga ko'chdi, uning sahnaviy talqini ham ancha katta shuhrat topdi. Romandagi ijtimoiy muhitning talqinida inson xarakteridagi salbiy illatlarga qarshi kurashuvchi, adolat posbonlarining insoniy fazilatlari bilan birgalikda, jinoiy guruhga sherik bo'lgan, insoniy fazilatlarni yo'qotgan, jinoyat olamiga sherik bo'lib qolgan bir qator organ xodimlarining fojearini haqqoniy yoritib bergan. Bu esa yozuvchining ijtimoiy muhitni, tarixiy sharoitni teran his qilganligidan va jamiyat taraqqiyotiga to'g' anoq bo'layotgan holatlarni haqqoniy tasvirlaganidan dalolat beradi.

Xullas, adibning har ikki romani o'zbek romanchiligi tarixida o'ziga xos munosib o'rin egalladi. Eng muhimi, jamiyatni, odamlarni manaviy-axloqiy poklik sari qadam qo'yishga undaydi. O'lmas Umarbekov yuzlab yetuk hikoyalar, o'nlab qissalarida insoniy fazilatlarni, barkamol shaxs xarakterini talqin etganligini kuzatamiz. Ammo qayd qilingan har ikki romanda inson xarakteridagi salbiy illatlarni, xarakter xususiyatining o'zgarish sabablarini epik voqealar zamirida badiiy talqin etgan. Yozuvchining ijtimoiy muhit zamirida shakllangan adolat va adolatsizlik, baxt va baxtsizlik, quvonch va iztirob kabi tushunchalarni inson tafakkuridagi evrilishlar bilan uzviy bog' laydi. Bunday turfa xil ohangdagi talqinlar ijodkordan hayotni, inson xarakterini, uning turfa xil xususiyatlarini, olam



va odam o'rtasidagi o'zaro birlikni, tabiatga vahshiylik qilayotgan shafqatsiz insonlar qiyofasini teran anglagan holda obrazlar galeriyasini yaratadi. Adibning ilk asarlaridan boshlab eng so'nggi asari bo'lgan "Qizimga maktublar" esse xarakteridagi asarida ham inson va uning shakllanishi, tafakkur tarzi, botiniy olamidagi ziddiyatlar, axloqiy go'zallik, insoniy fazilat, yovuzlik ustidan ezgulikning g'alaba qilishi teran talqinlarda o'z aksini topgan. Shuning uchun yozuvchining romanlarida ham ana shu xususiyatlar yetakchilik qiladi. Shu jihatdan ham, adib romanlarida talqin etilgan ijtimoiy muhit va xarakter o'rtasidagi o'zaro birlikni, dialektik bog'liqlikni talqin etishga va yozuvchining badiiy mahoratini ko'rsatishga harakat qildik.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

### I. Ijtimoiy – siyosiy adabiyotlar:

1. Каримов И. А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2009. - 40 бет.
2. Каримов И. А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. - 440 бет.

### II. Ilmiy – nazariy adabiyotlar:

1. Абдуллаева Г. Ўлмас Умарбеков ҳикоялари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги давлат адабиёт музейи, 2007. - 88 бет.
2. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент, Ўзбекистон, 2002. - 560 бет.
3. Дўстмуҳаммад Х. Ижод – кўнгил мунавварлиги. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2011.
4. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. Адабий ўйлар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. - 548 бет.
5. Каримов Х. Истиқлол даври адабиёти. – Тошкент: Янги нашр, 2010. -364 бет.
6. Карим Б. Абдулла Қодирий: танқид, таҳлил ва талқин. – Тошкент: Фан, 2006. - 232 бет.
7. Мирвалиев С. Ўлмас Умарбеков. – Тошкент, “Шарқ”, 2004. - 32 бет.
8. Мирвалиев С. Ўзбек адиблари. – Тошкент: Ёзувчи, 2000. - 280 бет.
9. Мустақиллик даври адабиёти. Адабий танқидий мақолалар, бадиалар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи, 2006. - 288 бет.
10. Норматов У. Умидбахш тамойиллар. – Тошкент: Маънавият, 2000. -112 бет.
11. Норматов У. Нафосат гурунглари. – Тошкент: Муҳаррир, 2010. - 390 бет.
12. Норматов У. Ижод сەҳри. – Тошкент: Шарқ, 2007. - 352 бет.
13. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 2007. - 336 бет.

- 14.Расулов А. Ардоқли адиб. – Тошкент: Шарқ, 2001. - 128 бет.
- 15.Раҳимжонов Н. Истиқлол ва бугунги адабиёт. – Тошкент: Ўқитувчи, 2012. - 328 бет.
- 16.Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент: Фан, 2004. - 128 бет.
- 17.Солижонов Й. Нутқ ва услуб. – Тошкент: Чўлпон, 2002. - 128 бет.
- 18.Содиқ Санжар. Ижоднинг ўттиз лаҳзаси. – Тошкент: Шарқ, 2005. - 320 бет.
- 19.Султон Иззат. Адабиёт назарияси. – Тошкент:Ўқитувчи, 1986.- 408 бет.
- 20.Тўраев Д. Ўзбек романларида бадиий тафаккур ва маҳорат муаммоси. – Тошкент: Университет, 2001. - 168 бет.
- 21.Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадиийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. - 508 бет.
- 22.Тўйчиев А. Ўзбек романларида макон ва замон. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2009. - 152 бет.
- 23.Умуров Ҳ. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Шарқ, 2002. - 256 бет.
- 24.Умуров Ҳ. Таҳлил чизгилари. – Тошкент: Мухаррир, 2013. - 312 бет.
- 25.Худойберганов Н. Парвоз давом этади. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. - 168 бет.
- 26.Худойберганов Н. Ишонч. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. - 248 бет.
- 27.Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарқ, 2004. - 640 бет.
- 28.Ўлжабоев У. Замон талаби ва ижодкор масъуллиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. - 376 бет.
- 29.Қуронон Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Тошкент: Шарқ, 2004. - 288 бет.
- 30.Қуронон Д. Мутолаа ва идрок машқлари. Адабий – танқидий мақола ва рисолалар. – Тошкент: Академнашр, 2013. - 336 бет.
- 31.Қўчқорова М. Бадиий сўз ва руҳият манзаралари. – Тошкент: Мухаррир, 2011. - 232 бет.

32. Қўшжонов М. Сайланма. Икки жилдлик. 1- жилд. – Тошкент: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. - 384 бет.
33. Қўшжонов М. Сайланма. Икки жилдлик. 2 - жилд. – Тошкент: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. - 360 бет.
34. Ҳамдам Улуғбек. Янгиланиш эҳтиёжи. – Тошкент: Фан, 2007. - 196 бет.
35. Ҳамдам Улуғбек. Бадий тафаккур тадрижи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2002. - 200 бет.

### **III. Lug‘ atlar:**

36. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. - 400 бет.

### **IV. Badiiy adabiyotlar:**

37. Ўлмас Умарбеков. Танланган асарлар. III жилдлик. I жилд. – Тошкент: Шарқ, 2004. - 398 бет.
38. Ўлмас Умарбеков. Танланган асарлар. III жилдлик. II жилд. – Тошкент: Шарқ, 2005. - 448 бет.
39. Ўлмас Умарбеков. Танланган асарлар. III жилдлик. III жилд. – Тошкент: Шарқ, 2007. - 464 бет.
40. Умарбеков Ў. Фотима ва Зухра. Роман. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. - 268 бет.